

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*

**UDK: 378.041:81’243**

**IBRAGIMOVA SEVARA BAXODIROVNA**

**MUSTAQIL TA‘LIM JARAYONIDA TALABALARNING  
XORIJIY TILNI O‘ZLASHTIRISH KO‘NIKMASINI  
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI  
(kredit-modul tizimidagi iqtisodiyot yo‘nalishi talabalari misolida)**

13.00.02-Ta‘lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olsih uchun  
yozilgan  
DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy rahbar:** Xakimova Muxabbat Fayziyevna,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Toshkent – 2024**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I bob MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING XORIJIY TILNI O'ZLASHTIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI</b> .....	12
1.1§ Oliy ta'lim tizimida kredit-modulli o'qitishning metodologik asoslari.....	12
1.2§. Talabalarni xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishda kredit-modul tizimining pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	25
1.3.§ Kredit-modul tizimi asosida xorijiy til mashg'ulotlarida mustaqil ta'limni tashkil qilishning pedagogik tamoyillari.....	38
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	45
<b>II bob MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING XORIJIY TILNI O'ZLASHTIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI</b> .....	47
2.1§ Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarga xorijiy tilda so'zlashni o'qitishning mazmuni.....	47
2.2 § Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirishning shakl va metodlari.....	60
2.3 § Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasni rivojlantirish modeli.....	70
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	83
<b>IIIbob MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING XORIJIY TILNI KREDIT-MODUL TIZIMIDA O'ZLASHTIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI</b> .....	85
3.1§. Kredit-modul jarayonida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishini tashkillashtirish va uni o'tkazish metodikasi.....	85
3.2§. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning samaradorlik darajasi.....	104
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	117
<b>XULOSA VA TAVSIYALAR</b> .....	118
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	121
<b>ILOVALAR</b> .....	132

## **KIRISH (falsafa fanlari (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati** Jahon iqtisodiy landshaftida xorijiy tillarni o‘zlashtirishda talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini va zamonaviy mehnat dunyosi talablariga moslashishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha Xalqaro ta’lim konsepsiyasida, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining “Ta’lim va ko‘nikmalar kelajagi 2030”<sup>1</sup> loyihasida ta’lim sifatini oshirish, o‘quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan o‘quv dasturlarini qayta ishlash va takomillashtirish, talabalarda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini oshirish bo‘yicha mamlakatlararo tizimli ishlar olib borilmoqda. Oliy ta’lim sifatini ta’minlash Yevropa tarmog‘i xalqaro tashkilotlari amaliy ingliz tilini, xalqaro muloqot tili sifatida kasbiy talablar darajasida o‘rganishda mustaqil ta’lim amaliy ko‘nikmalariga ustuvorlik bergan holda tashkil etishga qaratilgan yirik loyihalarni joriy etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda talabalarning ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish, tillarni mustaqil o‘rganish, refleksli fikrlash va kuchli iroda fazilatlarini rivojlantirish, konstruktiv fikr bildirish qobiliyatini shakllantirish bo‘yicha ustuvor ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xorijiy tillarni o‘rganishda amalga oshirilgan tadqiqotlar tarkibida mustaqil ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish, inklyuziv yondashuvlarga asoslangan va ko‘p madaniyatli xususiyatlarni hisobga olgan holda oliy ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitish tizimini joriy etish hamda chuqur o‘rganish an’analarini saqlab qolishda ta’lim texnologiyasidan foydalanish kabi yo‘nalishlardagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimini jahon ta’lim standartlari darajasida rivojlantirish bilan bir qatorda xalqaro darajadagi raqobatbardosh, yuqori malakali, iqtisodiyot yo‘nalishlarida mutaxassislarni tayyorlash, talabalarning amaliy ingliz

---

<sup>1</sup> The future of education and skills: Education 2030:Organisation for Economic Co-operation and Development. Directorate for Education and Skills, Paris, France: OECD, 2018, p.7 (p.21)

tilidan ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-sonli Farmonida “oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish” ustuvor vazifa etib belgilandi<sup>2</sup>. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda talabalarning xorijiy tilni o‘zlashtirish jarayonida nutq qobiliyatini rivojlantirish samaradorligi mantiqiy tugallangan modulli diskret (uzviylik) rejimda va talabalarning shaxsiy intellektual xarakatchanligi uyg‘unligini izchil motivatsiyalash tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son “Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”, 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi kabi hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi” farmoni

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ishtimoiy, madaniy-ma’rifiy rivojlantirishda innavatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda F.S.Azizova[17], L.T.Axmedova[35], F.X.Ibragimova[46], G.T.Maxkamova[51], K.J.Riskulova[27], T.K.Sattarov[28], F.B.Saidova[56], D.U.Xoshimova[65], M.T.Qodirovalar[26]lar oliy ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish va sifatini boshqarishning didaktik va metodik jihatlarini tadqiq etgan.

Talabalarning nutq malakalarini rivojlantirish O.N.Fedorova[114], T.I.Shamov[68], G‘.B.Shoumarov[34]lar; I.Ya.Yoqubov[33], V.V.Safonova[58], O‘.X.Xoshimov[32]lar esa xorijiy til o‘qitishning kommunikativ metodi va kompetentlik yondashuvining nazariy asoslaridan I.A.Zimnaya[44], T.M.Kovaleva[106], N.A.Muslimov[22], K.J.Riskulova[27], M.T.Qodirova[26]lar; hamda kredit-modulli yondashuvning xususiyatlari O‘.A.Maxmonov[21], M.K.Sultonov[29], A.Umarov[31], B.Sh.Usmonov[31], V.O‘rinov[29], R.A.Habibullahev[31], T.V.Guskova[103], I.V.Sidorov[77], I.L.Shishkina[118], O.A.Xramochkina[116] va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Chet tillarini o‘qitishda kommunikativ, ijtimoiy va amaliy-faoliyatli moslashuvchanlik jihatlarini oliy ta’lim muassasalarida, MDH mamlakatlari olimlari N.I.Arshinova[101], N.A.Belenyuk[102], T.I.Gustomyasova[104], B.A.Darmayev[105], S.R.Dortman[133], I.A.Zimnaya[44], A.V.Konisheva[47], E.S.Nechayeva[107], L.P.Pavlova[108], M.V.Seliverstova[111], E.E.Sokolova[62], O.I.Xalupo[115],T.I.Shalavina [117]lar tatbiq etishgan.

Tillarni o‘rgatish jarayonida muloqot yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning turli jihatlarini xorijiy davlat olimlari S.Aston [70], Z.L.Berge [71],

J.A.Choi [72], E.Coleman[73], A.Crowe[74], T.Dinkelman [75], Harmer Jeremy [76], F.Karimkhani [77], F.Liao [78], J.Senese[79], J.Whitehead va B.Fitzgerald [80]lar tomonidan tatbiq etilgan.

**Dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F1-049-raqamli "Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2021 yillar).

**Tadqiqotning maqsadi** mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat

**Tadqiqotning vazifalari:**

mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini aniqlash;

zamonaviy xorijiy til ta'limini modernizatsiya qilish doirasida kredit-modulli tizim sharoitida tilni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish;

talabalarni kredit-modulli tizim sharoitida xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlashi sharoitida nutq qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish samaradorligini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida mustaqil ta'lim jarayonida talabalarda xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Guliston davlat universiteti va Farg'ona davlat universiteti Iqtisodiyot fakultetining 367 nafar talabalari respondentlar sifatida ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, anketa, savol-javob, suhbat, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistika usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

oliy ta'lim muassasalari talabalarining xorijiy tilni o'zlashtirish jarayonida nutq qobiliyatini rivojlantirish samaradorligi mantiqiy tugallangan modulli diskret (uzviylik) rejimda va talabalarning shaxsiy intellektual harakatchanligi uyg'unligini izchil motivatsiyalash asosida oshirilgan;

mustaqil ta'lim jarayonida talabalarda xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish imkoniyatlari kognitiv ehtiyojlarni hal qilish qobiliyatlarini shaxsning faoliyat jarayoniga uyg'unlashtirish hamda reflektiv fikrlash, irodaviy fazilat, mustaqillik komponentlarini funksional va kommunikativ jarayonlarda talabalarning bir-birini baholashi asosida ochib berilgan;

talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida xorijiy tilni rivojlantirish modeli ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda fikr-mulohazalarning va individual farqlanishning oshishi hamda muammoli til birliklarini ifodalovchi so'zning leksik va grammatik shakllarini assotsiativ bog'lab o'rgatish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni differensiallashgan ta'lim trayektoriyasi va modulli ta'limda o'zini o'zi nazorat etish va lingvistik o'quv materiallarini tematik modullarga ritorik aloqasini uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mustaqil ta'lim jarayonida talabalarda xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirishning mazmuni, samarali shakl, metod va vositalari takomillashtirilgan;

iqtisodiyot yo‘nalishlarida o‘tiladigan “Xorijiy til” (ingliz tili) fanidan xorijiy tilni mustaqil ravishda o‘rganish uchun mo‘ljallangan “Independent work time” nomli o‘quv qo‘llanma tayyorlangan;

mustaqil ta’lim jarayonida talabalarda xorijiy tilni o‘zlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida iqtisodiyot fakulteti talabarlari uchun “Economy English in one lesson” nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan va talabalarining mustaqil ta’lim jarayonida xorijiy tilni o‘zlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirishga erishilgan;

“Xorijiy til” (ingliz tili) fanidan “Talabalarining mustaqil ta’lim jarayonlarini rivojlantirish yoki boshqarish uchun natijalarni tahlil qilish va bashorat qilish tizimi”, ayniqsa, tilni mustaqil ravishda o‘rganish (kredit modul tizimi asosida) nomli mobil ilova yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan xulosalarning asoslanganligi va ishonchliligi pedagogika fanining zamonaviy yutuqlarining tahlili bilan; tadqiqotning maqsadi va vazifalariga mos keladigan hamda o‘zaro bir-birini to‘ldiradigan metodlar majmuini tanlaganligi; tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, natijalarning tajriba-sinov ishlarining turli bosqichlarida tizimli tekshirilganligi; tadqiqot natijalari ma’lumotlarini matematik statistika metodlarini qo‘llash orqali sifat va miqdoriy tahlil qilinganligi xamda olingan ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etilib, vakolatli tuzulmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kredit-modul tizimi sharoitida oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil ta’lim jarayonida xorijiy tilni o‘zlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish asosida talabalarining kasbiy tayyorgarligi, xalqaro ilg‘or tajribalar; fanning mohiyati, mazmuni va innovatsion ta’lim texnologiyalari takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.



Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan bo‘lajak mutaxassislarning ijtimoiy faolligini oshirishga asoslangan o‘quv-tarbiya jarayonida, ishlab chiqilgan model va dasturdan bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda, seminar mashg‘ulotlari, ingliz tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘qitishda, intensiv o‘quv kurslarda, o‘quv-uslubiy qo‘llanma hamda darsliklarni yaratishda, sohaga yo‘naltirilgan tarjima lug‘atlarini tuzishda ingliz tili faniga doir fan va o‘quv dasturlarini takomillashtirishda keng foydalanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning xorijiy tilni o‘zlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish texnologiyasi tizimiga doir tadqiqot natijalari asosida:

kredit-modul tizimi sharoitida oliy ta’lim muassasalari talabalarining xorijiy tilni o‘zlashtirish jarayonida nutq qobiliyatini rivojlantirish samaradorligi mantiqiy tugallangan modulli diskret (uzviylik) rejimda va talabalarining shaxsiy intellektual harakatchanligi uyg‘unligini izchil motivatsiyalash asosida oshirilgan tavsiyalar 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Economy English in one lesson” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 02/01-01-86-son, 26-may 2023-yildagi ma’lumotnomasi). Natijada, mustaqil ta’lim jarayonida talabalarining xorijiy tilni o‘zlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish imkoniyati yaratilgan;

mustaqil ta’lim jarayonida talabalarda xorijiy tilni o‘zlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish imkoniyatlari kognitiv ehtiyojlarni hal qilish qobiliyatlarini shaxsning faoliyat jarayoniga uyg‘unlashtirish hamda reflektiv fikrlash, irodaviy fazilat, mustaqillik komponentlarini funksional va kommunikativ jarayonlarda talabalarining bir-birini baholashi tizimi asosida ochib berilgan tavsiyalar 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan

“Independent work time” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 28-avgustdagi 272-48-raqamli guvohnomasi). Natijada, talabalarning xorijiy tilni o‘zlashtirish ko‘nikmasini imkoniyatlari funksional va kommunikativ jarayonlarda bir-birini baholashi asosida ochib berilgan;

talabalarining mustaqil ta’lim jarayonida xorijiy tilni rivojlantirish modeli ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda fikr-mulohazalarning va individual farqlanishning oshishi hamda muammoli til birliklarini ifodalovchi so‘zning leksik va grammatik shakllarini assotsiativ bog‘lab o‘rgatish asosida takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Economy English in one lesson” nomli o‘quv qo‘llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 02/01-01-86-son, 26-may 2023-yildagi ma’lumotnomasi). Natijada, bu yondashuvlar talabalarning mustaqil ta’lim jarayonida mashg‘ulotlardagi faoliyatini, kommunikativ kompetentligini rivojlantirish samaradorligiga erishilgan;

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni differensiallashgan ta’lim trayektoriyasi va modulli ta’limda o‘zini o‘zi nazorat etish va lingvistik o‘quv materiallarini tematik modullarga ritorik aloqasini uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Independent work time” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 28-avgustdagi 272-48-raqamli guvohnomasi). Natijada, kredit-modul tizimi sharoitida oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil ta’lim jarayonida xorijiy tilni o‘zlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish usullarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyati kengaytirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika, 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokama qilingan va ma'qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 121 sahifani tashkil qiladi.

# I BOB. MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING XORIJIY TILNI O'ZLASHTIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

## 1.1-§. Oliy ta'lim tizimida kredit-modulli o'qitishning metodologik asoslari

Bugungi globallashuv sharoitida inson hayotining barcha sohalarida misli ko'rilmagan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu silsilalar ham uzoq yillar davomida shakllangan qadriyatlar, an'ana va tamoyillarning "bo'linib ketishi"ga olib keldi. Xususan, nufuzli olimlar, xalqaro tashkilotlar ekspertlari tomonidan yaqin va o'rta muddatli istiqbolda yer kurrasining rivojlanishiga tahdid soluvchi xavf-xatarlar bo'yicha bir qator tasdiqlangan va tasdiqlanmagan ma'lumotlar e'lon qilinmoqda. Ammo shunisi aniqki: agar dunyo umuman harakat qilmasa, inson o'ta xavfli vaziyatning qurboniga aylanishiga shubha yo'q. Tejashning yagona yo'li – to'plangan bilim, ko'nikma va xulosalarni yagona maqsadga yo'naltirish, bilim va tajribani samarali birlashtirishdir.

Bilimlarni rivojlantirish va shakllantirish bevosita ta'lim tizimiga borib taqaladi. Ta'lim tizimining samaradorligi bevosita o'qituvchining saviyasiga, talabaning ehtiyojlariga, o'quv adabiyotlari mazmuniga va mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilmaga bog'liq. Binobarin, ilg'or kadrlar tayyorlash, ularning raqobatbardoshligini mehnat bozori talablariga mos ravishda oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlash ta'lim muassasalarida tashkil etilgan o'quv jarayoni bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekistonda ta'limni modernizasiya qilish jarayoni, mamlakatimizning xalqaro ta'lim dasturlari jarayoniga kirishi oliy ta'lim muassasalarining ta'lim faoliyatini sezilarli darajada yangilashga, talabalarning harakatchanligini, ularning o'zini o'zi anglashi va talabini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga ma'lum talablarni qo'yadi, bu davlat darajasida quyidagilarni anglatadi:

“ko'p darajali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;

ta'limning kredit-modulli tizimiga o'tish (Boloniya Konvensiyasi, 1997, Lissabon)"[56].

Kadrlar tayyorlashning bunday tizimi quyidagi sxema asosidagi ta'limni o'z ichiga oladi: bakalavr darajasi (4 yil), keyin magistratura (2 yil) va doktorantura (3 yil).

“Bakalavriat” ta'lim dasturi oliy kasbiy ta'limning boshlang'ich bosqichi sifatida “mutaxassis” va “magistr” ta'lim dasturlaridan nafaqat qisqaroq o'qish muddati (kamida 4 yil), balki tor profilning yo'qligi bilan ham farqlanadi. Bakalavr hech qanday tor mutaxassisliksiz fundamental ta'lim oladi, chunki bakalavriat dasturlari umumiy ilmiy va umumiy kasbiy xususiyatga ega.

Kredit-modulli o'qitish tizimi Boloniya Konvensiyasini imzolagan barcha mamlakatlarda qo'llaniladi. O'zbekistonda kredit-modulli ta'lim tizimiga o'tish o'quv jarayonini global standartlar bilan birlashtirishga, o'quv jarayonini talabalar uchun yanada shaffof va tushunarli qilishga imkon beradi, shu bilan birga, xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalari rivojlanadi.

V.O'rinovning fikriga ko'ra, “Kreditlar shunchaki raqamlar emas. Har bir kredit talaba bajarishi kerak bo'lgan ma'lum miqdordagi o'qish yuklamasini va talaba buning natijasida muayyan o'qish natijalariga erishganligini bildiradi. Ya'ni, ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System / Yevropa kredit o'tkazish va to'plash tizimi) kredit-modul tizimi tarkibi ikki zaruriy elementdan iborat: a) o'qish yuklamalari va b) o'qish natijalari. Talaba shu elementlarni bajargandagina fan bo'yicha belgilangan kreditlarni qo'lga kiritishi mumkin” [29].

Kredit-modul tizimining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

-maqsad, vazifa, natijaga e'tiborni qaratish tamoyillarning amalga oshirilishi; birlik tamoyili asosida kompetensiyalarni shakllantirish; o'quv materialini modulli tashkil qilish tamoyili va minimal yetarlilik, hamkorlik tamoyili, faol nutq amaliyoti tamoyili, talabalarning shaxsiy intellektual harakatchanligi o'yg'unligini izchil motivatsiyalash va tilning barcha jihatlarini o'zlashtirish;

- paralell ishlash: guruh, hamkorlik va individual;

-o‘quv materialining darajali differensiasiyasining majburiy mavjudligi.

Shu munosabat bilan kredit-modulli tizim sharoitida xorijiy tilni o‘zlashtirish jarayoni an’anaviy xorijiy tilni o‘qitishdan birmuncha farq qiladi.

Nutq faoliyatini, shu jumladan, nutq faoliyatini rivojlantirish an’anaviy ravishda xorijiy tilni o‘zlashtirish maqsadi – xorijiy tilda gapirish ko‘nikmasini shakllantirishning tarkibiy qismi bo‘lib kelgan.

X.A.Mamatkulovning ilmiy tadqiqotida tillarga “ixtisoslashmagan oliy ta’lim muassasalari talabalariga chet tilini o‘rgatishda ijodiy faollikni modernizatsiyalash masalalari, ya’ni tillarga ixtisoslashmagan oliy ta’lim muassasalari talabalariga ingliz tili o‘rgatish kommunikativlik, ijodiy faollik va kreativlik komponentlari, o‘z-o‘zini baxolash, individual rivojlantirish, auto-psixologik trening majmuini qo‘llash asosida takomillashtirilgan; tillarga ixtisoslashmagan oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish sifati, innovatsion va ijodiy faoliyat komponentlarini optimallashtirish asosida rivojlantirilgan ingliz tilini bilish darajalarini rivojlantirish asosida takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan” [92].

Pedagog olimi K.J.Riskulovning ta’kidlashicha, “Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda ularning pedagogik kompetentligi va kreativligini shakllantirishga innovatsion yondashish, zamonaviy axborot-texnologiyalaridan foydalanish ustuvor bo‘lmoqda. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning kompetentligini shakllantirish samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishning mazmuni, shakl va metodlarini aniqlash va tajriba-sinov ishlari orqali ularni amaliyotga keng tatbiq etishga qaratilgan shuningdek oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini kasbga tayyorlashda beriladigan bilim, malaka va ko‘nikmalar ta’lim mazmuniga metodologik asosda yondashuvni talab etadi” [27].

Davlatimiz rahbari 2019 yil 8 oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

Farmonni imzoladi. Ushbu muhim siyosiy hujjatda “respublikaning kamida 10 ta oliy o‘quv yurtini xalqaro miqyosda tan olingan tashkilotlar reytingida birinchi 1000 o‘rinni egallagan oliy o‘quv yurtlari ro‘yxatiga kiritish va asta-sekin oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini kredit-modulli tizimga o‘tkazish” belgilangan [7].

B.Sh.Usmanovning fikricha, “O‘zbekistonda kredit ta’lim tizimiga asoslangan milliy modelni ishlab chiqishda, Yevropa ECTS krediti va Amerika kredit soatlari tizimlarining yutuqlarini inobatga olgan holda yuqori ta’lim sifatini va dunyo ta’lim jarayonlariga integratsiyalashish uchun ishonchli asosni tanlash maqsadga muvofiqdir” [31].

Kredit tizimi ilk bor AQSH universitetlarida XVIII-XIX asrlarda o‘quv jarayonini erkinlashtirish, talabaning haftalik o‘quv yuklamasini yo‘lga qo‘yish maqsadida joriy etilgan.

Amerikalik taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot ta’limda “kredit soatlari” tushunchasini 1869 yilda Garvard universiteti prezidenti kiritdi. Shu asnoda, kredit soatlari bilan baholash tizimi joriy etildi (1870-1880 yy). Talabalarga kredit tizimida o‘qish va o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish, o‘quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, hamda ta’lim sifatini nazorat qilish va ta’lim texnologiyalarini takomillashtirishga imkon berdi.

Talaba uchun kredit yig‘ish shkalasining joriy etilishi nafaqat ko‘proq erkinlik berdi, balki kelajakda u tanlangan sohada raqobatbardosh mutaxassis bo‘lishi uchun o‘quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish imkoniyatini ham berdi. Bu ayni paytda, baholash tizimi va ta’lim texnologiyalarining rivojlanishiga olib keldi. O‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab, Yevropadagi barcha oliy o‘quv yurtlarining integratsiyasini ta’minlash, yagona oliy ta’lim standartini yaratish hamda talabalar va o‘qituvchilarning harakatchanligini oshirish, diplomlarni tan olish, talabalarning malaka va ko‘nikmalari, bilimlarini baholashni birlashtirish bilan bog‘liq bir qator muammolarni hal qilish uchun kredit-modul tizimini yaratildi. Bu jarayon natijasida

1999 yilda Italiyaning Boloniya shahrida 29 mamlakat vakillari tomonidan Boloniya Deklarasiyasi imzolandi.

Bugungi kunga kelib Boloniya jarayonida 50 dan ortiq mamlakat ishtirok etmoqda. MDH mamlakatlari orasida Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova, Armaniston, Gruzziya, Qozog‘iston va Belarus Respublikasi bor. Boloniya tizimi bo‘yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Odatda, bakalavr darajasiga tayyorgarlik kamida uch yil, magistr darajasi esa 1-2 yil davom etadi. Boloniya deklarasiyasida ko‘rsatilganidek, kredit-modulli tizim asosan mustaqil ta‘limga e‘tibor qaratgan holda ikkita funksiyani bajarishga xizmat qiladi:

birinchisi, talabalar va o‘qituvchilarning harakatchanligini, ya‘ni bir oliy o‘quv yurtidan boshqa universitetga to‘siqsiz, erkin o‘tishni (o‘qish yoki ishlashga o‘tishni) ta‘minlaydi;

ikkinchidan, talabaning tanlangan yo‘nalish yoki mutaxassislik bo‘yicha barcha ilmiy va metodik faoliyati uchun o‘quv yuklamasi aniq hisoblanadi. Kreditlar miqdori talabaning tanlangan dasturda qancha o‘zlashtirganligini ko‘rsatadi.

Ta‘limni tashkil etish jarayoni bo‘lgan kredit-modulli tizim – bu modulli o‘qitish texnologiyalari va kreditni o‘lchashga asoslangan baholash modelining kombinatsiyasi. Uni umuman amalga oshirish ko‘p qirrali va murakkab tizim jarayonidir. Kredit-modul tamoyili ikkita asosiy masalaga ahamiyat beradi: talabalarning mustaqil ishini ta‘minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.

O‘.A.Maxmonovning fikricha “Kredit-modulli tizim – bu mazmunli modullarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan talabaning o‘quv yukining o‘lchov birliklari sifatida modulli o‘qitish texnologiyalari va ECTS kreditlarining birligiga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish modeli”[21].

N.A.Muslimovning ta‘kidlashicha, “Kredit-modul tizimi – talaba o‘quv yuklamasini o‘lchash birliklari sifatida modulli o‘qitish texnologiyalari va kreditlari birligiga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish modelidir” [22].



“O‘quv jarayonini tashkil etishning kredit-modulli tizimi talabani o‘quv dasturlarining mazmunini sifatli o‘zlashtirishga majbur qiladi va shu bilan O‘zbekiston va chet eldagi turli ta‘lim muassasalarida o‘qish natijalarini ob‘yektiv tan olishni ta‘minlaydi, maktab bitiruvchilari oliy o‘quv yurti uchun zarur bo‘lgan yakuniy imtihonlarga jiddiyroq tayyorgarlik ko‘rishga imkon beradi” [20].

“Ta‘lim jarayonini tashkil etishning kredit-modul tizimi – modulli o‘qitish texnologiyalari va ta‘lim bo‘linmalarining kreditlari yoki kreditlari kombinasiyasiga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish modelidir” [107].

T.V.Guskovanning tadqiqot ishida kredit-modulli o‘qitish tizimi – har besh yilda bir marta malaka oshirish talabiga muvofiq rejalashtirilgan bo‘lib, asosan, har bir talabaning kredit-modulli o‘quv dasturlari tarkibiga mos keladigan bir qator kreditlarni mustaqil ravishda olishiga asoslanadi [103].

V.O‘rinovning ta‘kidlashicha “Kredit-modul tizimida ahamiyat beriladigan asosiy masalalar [29]:

- talabalarda mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmasini oshirish;
- talabalarga baholash mezonini singdirish;
- ta‘limda modul texnologiyasini takomillashtirish;
- talabalarning mustaqil ishlashini ta‘minlash uchun fanning metodik ta‘minotini takomillashtirish.

Kredit-modulli tizimning asosiy vazifalari sifatida quyidagi vazifalar tan olinadi:

- o‘quv jarayonini modulli tashkil etish;
- bir mavzu, xarajatlarni belgilaydigan kurs (kredit);
- talabalar bilimni baholar asosida baholash;
- talabalarga individual ravishda o‘z o‘quv dasturlarini yaratish imkoniyatini berish;
- qulay ta‘lim dasturlari va mehnat bozorida mutaxassisligi bo‘lgan talabaga qarab o‘zgartirish imkoniyati kabilar berilgan.

Muxtasar qilib aytganda, ushbu tizim talabaning malakasini oshirish va kamol topishiga qaratilgan. U hayot davomida bilim olishni va zamonaviy mehnat bozori talablariga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishni ta'minlashga qaratilgan.

Modul va kredit tushunchalarining mohiyatiga qisqacha to'xtalamiz. Modul – ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, fanlar va kurslar o'rganiladi. Shu bilan birga, o'qituvchi o'quv jarayonini ijodiy tashkil qiladi, jonli, video va audiolar bilan talaba faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba mavzuni o'rganadi va vazifalarni mustaqil bajaradi.

“Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarida kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish, normativ hujjatlarni qo'llashdagi muammolarni aniqlash, tahlil etish, shuningdek, ularda oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari to'g'risida ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish” modulning maqsadi deb belgilandi [18].

Xorij tajribasiga ko'ra, kredit-modulli tizimda o'quv jarayoni har semestrda 2-4 moduldan iborat bo'ladi. Modullarga birlashtirilgan fanlar oddiydan murakkabga, nazariy va uslubiy fanlardan amaliygacha, shuningdek, mantiqan bir-birini to'ldirish tamoyiliga muvofiq shakllanadi. Talaba mutaxassis sifatida shakllanishi uchun nafaqat bilimga, balki ularni qayta ishlash, amalda qo'llash qobiliyatiga ham ega bo'lishi zarur.

Modulli ta'lim dasturlari maxsus sxema bo'yicha ishlab chiqilgan va quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- ✓ ta'limning maqsad va vazifalarini to'liq ochib berish;
- ✓ kurs boshlanishi va tugaganidan keyin yaxshilanishi kerak bo'lgan talabaning malakasiga qo'yiladigan talablar;

✓ modulga kiritilgan har bir mavzu uchun xulosa (o‘quv dasturi), ya’ni mavzular, amaliy mashg‘ulotlar rejasi hamda mustaqil ta’limni baholash uchun mo‘ljallangan vazifalar;

✓ mashg‘ulotning qisqacha mazmuni: tarbiya usullari va vositalari; bilimlarni baholash usullari va shakllaridan iborat.

Modulli ta’lim tizimida talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash uchun reyting baholash tizimi qo‘llaniladi. Unda talabaning barcha o‘quv faoliyati, ya’ni u tomonidan guruhdan va auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilgan bilimlar ballar bilan baholanadi. Kredit – talabalarning alohida ta’lim yo‘nalishi yoki dastur (kurs) bo‘yicha fanlarni o‘rganish va o‘zlashtirishga sarflagan o‘quv yuklamasining (vaqtining) o‘lchov birligi. Kredit – bu talabaga guruhlarda o‘qish uchun ajratilgan va mustaqil ravishda normativ hujjat bilan belgilangan, odatda, bir hafta ichida ajratilgan minimal vaqt o‘lchovidir. Qayd daftari ma’lum fan bo‘yicha berilgan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihonni muvaffaqiyatli topshirgandan so‘ng talabaga beriladi.

Kelajakda tanlangan yo‘nalish va mutaxassislik bo‘yicha diplom olish uchun har bir talaba kredit to‘plashi kerak. Yig‘ilgan kredit talabaga butun hayoti davomida malaka oshirish yoki qo‘shimcha oliy ma’lumot olish uchun xizmat qilishni davom ettiradi. Iqtisodiy jihatdan to‘plangan kredit talabaning akademik “aktivi”ga aylanadi.

Talaba kredit texnologiyasida o‘quv dasturidagi tanlov fanlarni hamda o‘qituvchilar tarkibini tanlash huquqini oladi, talabalar individual o‘quv dasturini shakllantirishda bevosita ishtirok etishlari mumkin. Shuningdek, o‘quv jarayonlarini baholash uchun bir xil qiymat ko‘rsatkichidir.

Bugungi kunga kelib ushbu kredit o‘lchov tizimini joriy etishning modelidan keng foydalanilmoqda. Bular Amerika Qo‘shma Shtatlarining kredit tizimi (USCS); Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi (ECTS); Osiyo-Tinch okeani mintaqasining

kredit tizimi (UCTS); Buyuk Britaniyaning kredit tizimi (CATS). Ushbu modellar orasida eng keng tarqalgan modellar AQSH va Yevropa mamlakatlariga tegishli.

Ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatimizning oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi respublikamizning barcha OTMlarda kredit modul tizimini joriy etishda, Yevropa ECTS tizimidan foydalanishga e'tibor qaratmoqda. Shuning uchun biz uning afzalliklari, qulayliklari, ijobiy va salbiy tomonlari haqida to'xtalishni tavsiya etamiz.

Boloniya Deklarasiyasining eng muhim jihatlaridan biri – bu oliy o'quv yurtlarining yagona "kredit tizimi" (ECTS) dan foydalanishdir. Kredit yoki kredit birligi o'quv dasturida hisobga olingan har qanday ta'lim faoliyatining xarajat ko'rsatkichi hisoblanadi. ECTS tizimi Yevropadan kelgan talabalar va umuman Boloniya jarayonining ishtirokchi mamlakatlari uchun katta afzalliklarni beradi. Masalan, talaba o'zi o'qiyotgan oliy o'quv yurtida olgan akademik bilimlari uning ushbu tizimga a'zo mamlakatlarning oliy o'quv yurtlarida tan olinishini, ya'ni uning "o'zgarishi" turini kafolatlaydi. Shu bilan birga, ushbu tizim a'zolariga talabalarni boshqa oliy ta'limda o'qishni davom ettirish, o'tkazish va tugatish imkoniyatini beradi.

ECTS tizimi, shuningdek, oliy ta'limlar uchun bir qator qulayliklarni taqdim etadi. Shunday qilib, u aniq ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari kontekstida o'quv jarayoni haqidagi ma'lumotlarni aniq aks ettiradigan o'quv dasturlarining o'xshashligi va o'ziga xosligini ta'minlaydi. Shuningdek, u mutaxassislik darajasini tan olishga erishish uchun talabalarni oldindan qabul qiladigan va yuboradigan oliy o'quv yurtlarida dasturlarning mazmunini muvofiqlashtirishga imkon beradi. Talabaning ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq barcha masalalarni hal etishdagi mas'uliyati va mustaqilligi saqlanib qoladi.

ECTS tizimiga ko'ra, har bir oliy o'quv yurti mustaqil ravishda kredit tuzilishini, har bir modul uchun kreditlar sonini, har bir kursni va umuman o'qish davrini yakunlash uchun to'plashi kerak bo'lgan kreditlarning umumiy miqdorini

belgilaydi. Talabalar ECTS tizimi bo'yicha bir yilda 60 kredit to'plashi kerak. Bir o'quv yili ikki semestrda iborat, talaba har semestrda 30 kredit to'plashi shart. Agar bakalavriat ta'lim yo'nalishi 3-4 yil bo'lsa, talaba oliy o'quv yurtini tamomlash uchun 180-240, 1-2 yillik magistraturada o'qish uchun esa 60-120 kredit to'plashi kerak.

Ma'lumki, xalqaro ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyati mavjud oliy ta'limda o'qituvchi kadrlarning asosiy e'tibori axborotni qidirish, uni o'zlashtirish va dastlabki ishlov berilgandan so'ng talabalar o'rtasida tarqatishga qaratildi. Ya'ni o'qituvchilar faqat ma'lumot qabul qiluvchi va uzatuvchi sub'yektlar bo'lib qoldi. Shu bilan birga, talaba ta'lim jarayonining ob'yekti sifatida axborotni qabul qiluvchi bo'lib xizmat qildi, ko'p vaqtini auditoriyada o'tkazdi, ma'ruzalar tingladi. Bugungi kunga kelib, axborot olamiga kirishni jadallashtirish, o'quv materiallarini tematik modullarga ritorik aloqasini uyg'unlashtirish hamda xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga kirishni kengaytirish, globallashtirish jarayonlarini jadallashtirish munosabati bilan talabalarning mustaqil ta'limi kun tartibiga qo'yildi.

Shu bilan birga rivojlangan xorijiy mamlakatlarning barcha oliy ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari, xususan, o'quv rejasida fanlar bo'yicha qisqacha o'quv rejalari (fanni aniqlash, professor-o'qituvchilar xaqida ma'lumot, dars tavsifi, fanning maqsadi, natijalari hamda ularning yutuqlari, mehnat bozorida mutaxassisga qo'yiladigan qisqacha talablar, ko'nikma va mutaxassislik malakalarini egallash bilan bog'liq ma'lumotlar) oliy ta'limlarning rasmiy veb-saytida ommaviy ravishda e'lon qilinadi. Hozirgi kunda, afsuski, abituriyentlar ushbu ma'lumotni oliy o'quv yurtlarimiz veb-saytlarida topishda qiynalishmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, an'anaviy o'qitish tizimining salbiy jihatlaridan voz kechish va ishni xalqaro standartlar talablari doirasida tashkil etish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi 35 ta oliy o'quv yurtida kredit-modulli tizimga o'tish ishlari jadal olib borilmoqda. Bu tizimni

yaratish uchun barcha kuchlar safarbar etilgan. Jumladan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ta'limning kredit tizimini boshqarish bo'limi mavjud. 2020/2021 o'quv yilidan boshlab ushbu bo'lim oliy ta'limda o'qitiladigan barcha ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini ECTS kredit-modulli tizimiga to'liq o'zgartirishni amalga oshirish bo'yicha ishlarni boshladi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, oliy ta'limda semestrda 15 haftalik o'qish va sertifikatlash uchun 6 hafta bakalavr bosqichida beriladi (imtihonlar uchun 3 hafta bir semestrda beriladi). Shu bilan birga, 4-yilda mashg'ulotlar haftalari soni 144, sertifikatlash 24 hafta va umumiy bayramlarni hisobga olgan holda 204 hafta ketadi. Barcha ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv dasturlarida har bir bosqichda fanlarni ikki qismga, ya'ni asosiy va fakultativ qismlarga bo'lish bilan aks ettiriladi. ECTS talabidan kelib chiqib, talabani har yili 60 kreditdan 4 yil davomida jami 240 kredit to'plashni majbur qilish rejalashtirilgan.

1 kredit = 12 akademik soat + 18 soat mustaqil ish deb oladigan bo'lsak, 1 kredit 30 soatga teng va talabaning haftalik guruh yuki 20 soatga teng. Ushbu tizimning oliy ta'limga kirib kelishi ta'lim sifatini oshirish, oshkoralikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, talabaning haqiqiy bilimini ochib berish va mustaqil o'qish va talaba ishlashiga zamin yaratadi. Bugungi kunda Yevropa kredit tizimi ushbu qit'aning deyarli barcha oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilmoqda.

Kredit-modulli tizim o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi ishi muhim omil hisoblanadi. Modulli o'qitishda o'qituvchi tinglovchi tomonidan o'zlashtirish jarayonini tashkil qiladi, kuzatadi, maslahatlashadi, tekshiradi. Talaba esa o'zi yo'nalgan ob'yektga mustaqil harakat qiladi. Talabalarning o'z-o'zini o'rganishga ham eng katta e'tibor qaratiladi. Ma'lumki, talabaning umumiy yuklamasi auditoriya va mustaqil ta'lim yuklamalaridir. Amaldagi ta'lim tizimida auditoriya yuklamalari bilan bir qatorda, mustaqil ish turlari ommalashmoqda.

Kredit bu baho emas, balki ish hajmi hisoblanadi. Masalan, talaba 4 kreditlik fanni o'zlashtirgan bo'lsa, u 4 kredit hajmidagi ishni bajargan hisoblanadi, ya'ni u ushbu fanning barcha talablarini bajargan hisoblanadi.

Kredit-modul tizimini "kredit" va "modul" atamaları orqali izohlash yetarli bo'lmaydi. Bu atamalar uni ixcham nomlash uchun qo'llanilgan, xolos. Biz kredit-modul tizimining mohiyatini boshqacha usulda ochib bermoqchimiz.

Avval ta'kidlab o'tilganidek, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimining asosiy tamoyillari va elementlari qisman tatbiq qilingan. Shunday ekan, kredit-modul tizimi biz uchun yangi bo'lgan va amaldagi ta'lim tizimida mavjud bo'lmagan quyidagi jihat va afzalliklari haqida fikr yuritamiz.

1)Oliy ta'limning samaradorligi. Amaldagi ta'lim tizimida talabalar 1-kursdan boshlab, umumiy fanlar, keyingi kuslarda yo'nalishlar va ular ichida tarmoqlar bo'yicha ajratilib ixtisoslik fanlarini o'zlashtiradi.

Kredit-modul tizimida tanlov fanlari semestrda semestrda oshib boradi. (1-2 kurslarda tayanch fanlarni, 3-4 kurslarda esa tanlov asosida ixtisoslik fanlar). Xulosa qilsak, endilikda kadrlarga bo'lgan talab uchun 2 yil yetarli bo'ladi. Bu esa oliy ta'limning ish unumini, samaradorligini 2 barobar oshiradi.

2) "Talaba-o'qituvchi"ning nisbati. Hozirgi kunda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida maxsus fanlarni past kurslardan boshlab rejalashtirish, o'quv rejalardagi takrorlanadigan fanlarni har xil mutaxassisliklar bo'yicha alohida o'qitish, auditoriya soatlari hajmini oshirish kabi holatlar mavjud. Bunday jarayonlar o'quv yuklamalarining keskin oshishiga sabab bo'ladi. Biroq biz bilamizki, oliy o'quv yurtida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan yuklama hajmi oliy o'quv yurti bo'yicha umumiy o'quv yuklamasi hajmini talabalar soni asosida hisoblangan o'qituvchilar soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Ya'ni o'qituvchilar shtati o'quv yuklamalari asosida belgilanmaydi, balki talaba-o'qituvchi nisbati orqali belgilanadi. Oliy o'quv yurti bo'yicha umumiy o'qituvchilar soni

aniqlangandan so'ng, ushbu asosda kafedralar shtatini shakllantiriladi, bunda esa kafedra o'quv yuklamalari hajmiga asoslaniladi.

Kredit-modul tizimida talaba-o'qituvchi nisbati 16:1 va undan ham yuqori bo'lishi ko'zda tutiladi. Bunga auditoriya yuklamalarini kamaytirish, talabaning mustaqil ishi hajmini oshirish, o'quv rejalarni unifikasiyalash, darslarni katta auditoriyada tashkil qilish orqali erishish mumkin.

3) Talabaning mustaqil ish turlari. Ochig'ini tan olishimiz kerak, biz asosan "Talabani qanday o'qitishimiz kerak?", degan muammo ustida bosh qotiramiz. Kredit-modul tizimida esa "Talaba qanday o'qishi kerak?" degan muammo ko'ndalang qo'yiladi. Buni batafsil izohlab o'tamiz.

Amaldagi ta'lim tizimida asosan auditoriyadagi darslarga ko'proq e'tibor beriladi, talabaning mustaqil ishiga esa jiddiy e'tibor qaratilmaydi, chunki bu faoliyat turi chuqur o'rganilmagan.

X.A.Mamatkulovning "Pedagoglarda xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida "oliy ta'lim muassasalari talabalarining amaliy ingliz tilidan ko'nikmalari tilni rivojlantirish uchun sharoit yaratish, og'zaki, majoziy, o'zini o'zi rivojlantirishning konstruktiv-texnologik va intellektual-ijodiy parametrlarini ijodiy va tanqidiy fikrlashga yo'naltirish asosida takomillashtirilgan, talabalarning darsdan tashqari mashg'ulotlardagi faoliyati talim olishga qiziqishlari, kommunikativlik, ishchanlik qobiliyati, emotsionallik darajalarini gomogen va geterogen qurishlarda kommunikativ jarayonlarni bosqichma-bosqich faollashtirish asosida takomillashtirilgan; auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarning ijodiy faoliyatini reproduktiv va mahsulodor darajalari "ENGLISH CLUB" to'garaklarida didaktik jarayonlarning pedagogik maqbul yechimlarni topish va natijaga erishishning bosqichlarini aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan; talabalarning auditoriyadan tashqarida mustaqil fikrlashini rivojlantirish kasbiy faollik, ijodiy-yaratuvchanlik darajalarini oshirishga qaratilgan mustaqil o'qish,



muammoli-integrativ, tarkibiy-mazmuniy va qadriyatli-semantik komponentlarni kiritish orqali takomillashtirilgan”[92].

Kredit-modul tizimida esa fan moduli tarkibidagi “O‘qituvchi hamkorligidagi talabaning mustaqil ishi” (O‘HTMI) va o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lmagan “Mustaqil ta’lim” (MT) muhim ahamiyat kasb etadi. O‘RTMI ga keyslar, topshiriqlar, intervyu, krossvord, viktorina, esse, dayjest, taqdimot, hisob ishi, hisob-chizma ishi, kurs loyihasi, kurs ishi, ilmiy izlanishlar, fan to‘garaklarida qatnashish va h.k.larni misol qilib keltirish mumkin. Bunday faoliyat turlariga rahbarlik qilish uchun alohida o‘quv yuklamalari joriy etilishi maqsadga muvofiq. MT ga esa vodkastlar, o‘rgatuvchi testlar, virtual trenajyorlar, FAQ, forumlarni misol qilib keltirish mumkin. O‘RTMI va MT turlari ro‘yxatini, glossariylarni, ularni qo‘llash bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalarni zarur darajada shakllantirishimiz mumkin, lekin eng asosiy masala – har bir fan bo‘yicha o‘ziga xos O‘RTMI va MT turlarini ishlab chiqishdir. Ayniqsa, ushbu mustaqil ish turlarini masofaviy ta’lim platformalarida shakllantirish shu kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Bu jarayonlarni ilg‘or pedagoglarning tajribalarini ommalashtirish orqali jadallashtirish mumkin [20].

Aytish o‘rinliki, ta’limning kredit tizimi talabalar almashinuvini oshiradi. Chunki oliy ta’limda olingan kreditlar boshqasida hisobga olinadi va talabalar kreditni yo‘qotmasdan bir oliy o‘quv yurtidan boshqasiga o‘tishlari mumkin. Aynan shu tizim o‘zbek talabalariga ilg‘or xorijiy oliy ta’limlarda o‘qishni davom ettirish va murakkab byurokratik to‘siqlarni olib tashlash imkonini beradi.

Ammo shuni ham ta’kidlashimiz kerakki, ko‘r-ko‘rona, o‘z qadriyatlarimizni hisobga olmasdan, har qanday xalqaro tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash, uning har bir elementini chuqur tahlil qilmasdan, ilmiy dalillarga asoslanib amalga oshirib bo‘lmaydi. Kelajakda muayyan salbiy holatlar paydo bo‘lishi mumkinligini ham unutmasligimiz kerak. Shuning uchun biz o‘quv jarayonining faol elementlari bo‘lgan o‘qituvchilar va talabalarning fikrlarini o‘zgartirishimiz, ularga ushbu tizim talabalarini singdirishimiz va maxsus madaniyatni shakllantirishimiz kerak.

## **1.2-§.Xorijiy tilni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda kredit-modul tizimining pedagogik va psixologik xususiyatlari.**

Kredit-modulli ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqishga to‘xtaladigan bo‘lsak, kredit modulli ta’limning muhim tavsifini berish zarur.

“Tadqiqotimizning birinchi bandida ta’kidlaganimizdek, o‘quv jarayonini tashkil etishning kredit-modul tizimi – o‘quv jarayonini tashkil etish modeli bo‘lib, u modulli o‘qitish texnologiyalari va o‘quv bo‘linmalarining kreditlari yoki kreditlari kombinasiyasiga asoslangan.O‘quv jarayonini tashkil etishning kredit-modulli tizimi bilan fanning mazmuni tarkib modullariga bo‘linadi (1 semestrda 2-4 modul), ya’ni o‘quv intizomi tarkib modullari tizimi sifatida shakllanadi. Modul – o‘quv jarayonining tegishli shakllari bilan amalga oshiriladigan ta’lim va kasbiy dasturning (o‘quv intizomi, amaliyot, davlat attestasiyasi) hujjatlashtirilgan tugallangan qismidir. Shunday qilib, tarkib moduli ma’ruzalar, seminarlar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, mustaqil va individual ishlar (masalan, kurs ishlari), maslahatlashuvlar, amaliyotlar va modul bo‘yicha bilimlarni boshqarish (joriy va yakuniy test) uchun vaqtni o‘z ichiga olishi kerak” [112].

Tizimli yondashuv pedagogik texnologiya tushunchasini ham kengaytiradi, chunki u o‘qitishning texnik vositalaridan tashqari, muqarrar ravishda pedagogik

jarayon ishtirokchilarini rejalashtirilgan natijalarga olib boradigan harakatlar algoritmini ham o'z ichiga oladi. Tizimli yondashuv deganda, uning barcha tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq bo'lgan, natijalarni doimiy ravishda aks ettirish va tuzatish, natijaga erishishni ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish o'zaro bog'liq bo'lgan ishni shunday tashkil etish tushuniladi.

Tizim yondashuvining asosiy tamoyillari quyidagilar: yaxlitlik, bu tizimni bir vaqtning o'zida va bir vaqtning o'zida yuqori darajalar uchun quyi tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi; iyerarxik tuzilma, ya'ni quyi darajadagi elementlarning yuqori darajadagi yelementlarga bo'ysunishi asosida joylashgan to'plam elementlarning mavjudligi.

Ko'plik, bu alohida elementlarni va umuman tizimni tavsiflash uchun turli xil kibernetik, iqtisodiy va matematik modellardan foydalanishga imkon beradi.

“Tizimli yondashuv atrofndagi voqelik hodisalari va jarayonlarining universal aloqasi va o'zaro bog'liqligini aks ettiradi. Tadqiqotchini hayot hodisalari ma'lum tuzilishga va o'zlikni ishlash qonunlariga ega tizimlar sifatida yondashish zarurligiga yo'naltiradi. Tizimli yondashuvning mohiyati nisbatan mustaqil komponentlar izolyasiyada emas, balki ularning o'zaro bog'liqligida ko'rib chiqiladi” [105].

Ushbu ilmiy tadqiqotda tizimli yondashuv modelni takomillashtirish ham, uni amalga qo'llash uchun uslubiy-dasturiy ta'minotning mazmuni ham namoyon bo'ladi.

“Kommunikativ-faoliyat yondashuvidan foydalanish talaba o'quv faoliyati sub'yekti sifatida o'qitish markazida ekanligini anglatadi va o'qitish tizimining o'zi talaba shaxsining individual psixologik, yosh va milliy xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvga ko'ra o'qitish ob'yekti barcha turdagi (tinglash, gapirish, o'qish, yozish) nutq faoliyati hisoblanadi. Kommunikativ-faoliyat yondashuvi xorijiy tildagi darslarni muloqotga, fikr almashish maqsadida tilning o'zidan foydalanishga o'rgatishga yo'naltiradi.

Natijada, talabalar o'rtasida muloqotga bo'lgan ehtiyojni yaratish va qo'llab-quvvatlashga, uning yordami bilan kasbiy ahamiyatga ega va umumiy madaniy qimmatli ma'lumotlarni o'zlashtirishga ustuvor e'tibor beriladi" [41].

Kommunikativ-faoliyat yondashuvining tamoyillari:

1) Til qobiliyatining rivojlanish tamoyili ("til tuyg'usi"). Til qobiliyati – bu til qonunlarini ongsiz ravishda o'zlashtirish. Nutqni takroriy idrok etish va o'z bayonotlarida o'xshash shakllardan foydalanish jarayonida o'xshashliklar talabanning ong osti darajasida shakllanadi va keyin u qonuniyatlarni o'rganadi.

2) Til hodisalaridan xabardorlikni shakllantirish tamoyili – nutqni o'zlashtirishning asosi nafaqat taqlid, balki til hodisalarini ongsiz ravishda umumlashdir. Nutq harakati qoidalarining o'ziga xos ichki tizimi shakllanadi.

3) Nutqning turli jihatlari bo'yicha ishlarning o'zaro bog'liqligi, nutqni yaxlit ta'lim sifatida rivojlantirish tamoyili. Ushbu tamoyilning amalga oshirilishi ishning shunday qurilishidan iborat bo'lib, unda tilning barcha sathlarini rivojlantirish ularning yaqin munosabatlarida amalga oshiriladi.

4) Nutq faoliyati motivasiyasini boyitish tamoyili. O'quv jarayonida o'qituvchi tomonidan ijobiy motivasiyani yaratish, shuningdek, muloqotga ehtiyoj tug'diradigan vaziyatlarni tashkil etish muhim vazifalardir.

5) Faol nutq amaliyotini ta'minlash tamoyili. Bu tamoyil tilning ishlatilishi, nutq amaliyoti jarayonida o'zlashtirilishida o'z ifodasini topadi. O'zgaruvchan sharoitda til vositalaridan foydalanishning takrorlanishi kuchli va moslashuvchan nutq malakalarini rivojlantirish, umumlashmalarni o'rganish imkonini beradi [25].

Kredit-modulli tizim asosida xorijiy tilni o'zlashtirishda biz kommunikativ-faoliyat yondashuvining quyidagi tamoyillarini ta'kidlashni taklif qilamiz: tilning barcha jihatlarni o'qitishning o'zaro bog'liqligi tamoyili, motivasiyani boyitish tamoyili, faol nutq amaliyoti tamoyili.

Ushbu tamoyillar kredit-modulli tizimda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradi (soatlarni qisqartirish, mustaqil ishlash

uchun motivasiyani yaratish va hisobga olish). Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tish kasb-hunar ta'limi mazmunini yangilash, innovasion pedagogik texnologiyalarni, integrativ jarayonlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Integrativ jarayonlar yuqori ixtisoslashgan ta'limdan keng profilli kasblar va kasblar guruhlarida ta'limga o'tishni belgilaydi.

Integrativ yondashuv har bir sikl davomida oldindan o'rnatilgan kasbiy ahamiyatga ega fanlararo aloqalar tizimi asosida bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishga qaratilgan bilim, ko'nikma, malakalarning keng qamrovli tizimini shakllantirish uchun o'zaro ta'sir, interpenetrasiya, turli fanlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydigan didaktik yo'nalish sifatida tushuniladi [59].

“Kredit-modulli tizim sharoitida xorijiy tilni o'zlashtirish uchun uslubiy modelni ishlab chiqishda biz uning samaradorligini ta'minlaydigan quyidagi omillarga e'tibor qaratdik: elementlarning o'zaro muvofiqligi, elementlar to'plamining to'liqligi, tizim poydevorining yetarliligi va ishonchliligi?” [111].

Kredit-modulli tizim sharoitida talabalarni xorijiy tilni o'zlashtirish jarayonini tashkil etish uning samaradorligini ta'minlaydigan modulli, kompetensiyaga asoslangan, tizimli va kommunikativ-faoliyat tamoyillari tizimini, integral yondashuvlarni hisobga olgan holda qurilgan. Shu bilan birga, tizimli va kommunikativ-faoliyat tamoyillarini, integrativ yondashuvlarni hisobga olgan holda modulli va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar yetakchi bo'lishini ta'kidlaymiz.

Fanning texnologik xaritasi – o'qituvchining o'quv hujjatlari ichidagi xujjatlardan, ish dasturi va fanning tematik rejasi bilan bir qatorda nazorat turlari, shakllari, nazorat shakllarining nisbati va chastotasini (joriy va muhim bosqich) belgilaydigan majburiy hujjatlar to'plamiga kiritilgan:

✓ semestr davomida nazoratning barcha turlari va shakllari bo'yicha ballarni hisoblash;



- ✓ akademik ko‘rsatkichlar darajasi, 5 baholik tizimda;
- ✓ joriy va boshqa nazorat turlariga nisbati.

O‘qitish vositalari bloki xorijiy tilni o‘zlashtirishni kredit-modulli tizim asosida shakllantirish dasturi hamda o‘quv-uslubiy qo‘llanma kabi dasturiy elementlar kiradi. Dastur oliy o‘quv yurtidada 1 yillik o‘qishning har bir bosqichida o‘qitish vazifalari va mazmuni tizimidir. O‘quv qo‘llanma “Xorijiy til”(ingliz tili) fani bo‘yicha qo‘shimcha element hisoblanadi.

Ushbu bloklar kredit-modulli tizim asosida xorijiy tilni o‘zlashtirish bo‘yicha ish shakllari bilan bog‘liq bo‘lib, ular o‘z navbatida guruh ishi, talabalarning mustaqil ishi va talabalarning mustaqil ishlarini nazorat qilish (o‘qituvchi nazorati ostida) shakllariga bo‘linadi.

<b>CAE: gapirish quyidagi parametrlarga muvofiq baholanadi:</b>
▪ grammatik tuzilmalar va lug‘at (leksik birliklar va grammatik tuzilmalar to‘plami, ulardan foydalanishning aniqligi va yetarliligi);
▪ matnни tashkil qilish (izchillik, so‘zlarning hajmi, dolzarbligi va mosligi);
▪ talaffuz (stress va ritm, intonasiya, individual tovushlarni talaffuz qilish);
▪ interfaol o‘zaro aloqa (noo‘rin pauzalarning mavjudligi, suhbatni boshlash va saqlash qobiliyati, berilgan savollarga yetarlicha javob berish qobiliyati).
<b>IELTS: gapirish quyidagi parametrlarga muvofiq baholanadi:</b>
▪ ravonlik va mantiqiy so‘z (gapirish tezligi, mantiqiy ulanish elementlarining mavjudligi);
▪ so‘z turkumining sifat miqdoriy tarkibi (ishlatilishining adekvatligi va aniqligi, sinonimlarning mavjudligi);
▪ grammatik tuzilmalardan foydalanishning soni va aniqligi (xatolar soni va sifati, oddiy va murakkab jummalarning nisbati);
▪ talaffuz (aniqlik-gapning noaniqligi, gapning ravshanligi).
<b>TOEFL: gapirish quyidagi parametrlarga muvofiq baholanadi:</b>
▪ taqdimot, so‘z (ravon va foydalanish yetarliligi);
▪ til dizayni (lug‘at va grammatika);
▪ mavzuni ochib berish (mantiqiy aloqaning mavjudligi).

Nazorat elementi xorijiy tilni o'zlashtirish bo'yicha ish shakllariga asoslangan bo'lib, unda nutq mahoratining rivojlanish darajasini baholash mezonlari, testlar, insho mavzulari va o'qituvchi bilan suhbat uchun mavzular mavjud.

Shakllangan xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalarini baholashning xorijiy mezonlari tahlili asosida biz kredit-modulli o'qitish tizimi asosida xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish mezonlari va darajalarini aniqladik.

Biz **CAE (UK), IELTS (UK), TOEFL (US)** kabi nutqiy imtihonlarni baholash parametrlarini ko'rib chiqdik. Keling, ularni batafsilroq ko'rib chiqaylik.

Shuningdek, biz xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish darajalarini aniqladik, ular orasida boshlang'ich, oraliq, rivojlangan darajani ajratamiz.

Boshlang'ich daraja talaffuzda, so'zning leksik va grammatik dizaynida ko'plab xatolar mavjudligi, so'zni tashkil etishda buzilishlar, mantiqiy aloqa vositalarining yetishmasligi, gapirish uchun past motivasiya va natijada aloqa maqsadiga qisman erishish yoki erishmaslik bilan tavsiflanadi.

Oraliq darajada talaffuzdagi xatolar soni sezilarli darajada kamayadi, so'zning leksiko-grammatik dizayni, so'zni tashkil qilishda individual noaniqliklar qayd etiladi, odatda tushunishga to'sqinlik qilmaydi, mantiqiy aloqa vositalarining ma'lum miqdori mavjud, talaba umuman olganda, so'zni tashkil qiladi. Gapirish jarayonida tashabbuskorlik, motivasiya darajasi o'rtacha, umuman kommunikativ vazifa hal qilinadi.

Rivojlangan daraja talaffuzda, so'zning leksik va grammatik dizaynida xatolarning yo'qligini, matnni tashkil qilish mantiqiy va izchil ekanligini, talaba nutq mavzusini o'zgartirganda qiyinchiliklarga duch kelmasligini, mantiqiy aloqa vositalari mavjudligini, motivasiya darajasi yuqori ekanligini, talaba nutq mavzusini o'zgartirganda qiyinchiliklarga duch kelmasligini ko'rsatadi.

Talabalarning xorijiy tilni o‘zlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish imkoniyatlarini baxolashda mavjud baholash parametrlari asosida funksiyanal va kommunikativ jarayonlarda talabalarning bir-birini baxolash tizimini taklif qilamiz.

Tavsiya etilgan tarkibiy modelni samarali amalga oshirish Pedagogika, malaka (daraja) "bakalavr" yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta‘limning Davlat ta‘lim standarti talablariga muvofiq ishlab chiqilgan, dasturiy va uslubiy ta‘minot yordamida amalga oshiriladi.

### 2.3.1-jadval<sup>9</sup>

**Xorijiy tilni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishni baholash mezonlari**

Daraja	Lingvistik daraja			Psixologik daraja	Ijtimoiy-madaniy daraja
	Talaffuz	L-G rasmiylashtirish	Bayon mantiqi	Motivasiya	Komm. muammoni hal qilish
<b>A modest user</b>	Fonemik xatolarning ko‘pligi va ko‘plab tovushlarning noto‘g‘ri talaffuzi tufayli nutq quloq tomonidan deyarli sezilmaydi. Intonasiya namunasi ona tili tamoyiliga asoslanadi.	Cheklangan so‘z boyligini namoyish etadi, ba‘zi hollarda vazifani bajarish uchun yetarli emas. Leksik birliklar kam ishlatiladi. Ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yadi yoki tushunishni qiyinlashtiradigan xatolarga yo‘l qo‘yadi.	Bayonot umuman mantiqiy, ma‘ruzachi yodlangan namunaga amal qiladi	Sust va suhbatni davom ettirishga intilmaydi, mavzuni o‘zgartirganda tashabbus ko‘rsatmaydi; ko‘p jihatdan suhbatdoshning yordamiga bog‘liq.	Muloqot maqsadiga to‘liq erishilmagan, mavzu cheklangan darajada oshkor qilingan yoki oshkor qilinmagan
<b>B competent user</b>	Nutq aniq, fonemik xatolar yo‘q, intonasiya naqshlari asosan asl nusxaga yaqin	Maqsadga erishish uchun mavzu bo‘yicha lug‘at yetarli. Tanlovda ba‘zi qiyinchiliklar mavjud. Nutqda qo‘pol bo‘lmagan grammatik xatolar mumkin.	Bayonot mantiqiy qurilishda farq qiladi, yodlangan namunalardan chetga chiqish mumkin, bir qator noaniqliklar kuzatiladi.	O‘rtacha va aksariyat hollarda suhbatni davom ettiradi, replikalar almashinuvi tartibiga hurmat ko‘rsatadi, mavzuni o‘zgartirishda har doim ham tashabbus ko‘rsatmaydi.	Muloqot maqsadiga erishildi, ammo mavzu to‘liq oshkor qilinmadi

Ushbu uslubiy modelning kutilgan natijasi talabalarning xorijiy tilni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishning yuqori darajasiga o‘tgan bo‘lishi kerak.

<sup>9</sup> Ushbu jadval muallif tomonidan shakllantirilgan

## **Ikkinchi bob bo'yicha xulosa**

1) Xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmun bloki kommunikativ, kognitiv va kasbiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

2) Xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish dasturi qisqa muddatga (o'quv yilining birinchi yili) xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalarini, kasbiy ahamiyatga ega fazilatlarni shakllantirishga va talabalarni keyingi mashg'ulotlarga tayyorlashga imkon beradi.

3) Mustaqil maqsadni belgilash, o'zlashtirishning mazmunini aniqlash, berilgan mustaqil ishni tahlil qilish va mustaqil ishni baholash o'qitish jarayonida mustaqil ishning ta'limiy ko'nikmasini shakllantirishga imkon beradi.

4) Algoritmardan foydalanish nafaqat amaliyotda tizimli yondashuvni amalga oshiradi, balki xorijiy tilni o'zlashtirish qobiliyatini shakllantirish jarayonini sezilarli darajada soddalashtirishga imkon beradi.

5) Yuqorida aytilganlarning barchasi model mazmuni ikkinchi bobda ko'rib chiqish va eksperimental mashg'ulotlar davomida metodologiyani amalga oshirish samaradorligini tekshirish natijalarini dasturiy va uslubiy qo'llab-quvvatlash va tahlil qilish orqali ishlab chiqilgan uslubiy modelni amalga oshirish tavsifi uchun asosdir.

6) Asosiy faol nutq amaliyoti va tilning barcha jihatlarini o'rgatishning o'zaro bog'liqligi tamoyillarga asoslanadi: natijalarviy tamoyil; birlik tamoyili asosida kompetensiyani shakllantirish; o'quv manbalarini modulli tashkil qilish tamoyili va minimal yetarlilik; sheriklik tamoyili; motivasiyani to'g'ri qaratish tamoyili.

### **III BOB. MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING XORIJIY TILNI KREDIT-MODUL TIZIMIDA O'ZLASHTIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI**

#### **3.1-§Kredit-modul jarayonida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishini tashkillashtirish va uni o'tkazish metodikasi**

Kredit-modul jarayonida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari mamlakatimizdagi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Guliston davlat universiteti va Farg'ona davlat universitetlarida tashkil etildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarida tajriba va nazorat guruhlari bo'yicha jami 367 nafar talabalar jalb etildi 3.1.1-jadval.

**3.1.1-jadval<sup>10</sup>**

<b>Ta'lim muassasalari</b>	<b>Jami talabalar</b>	<b>Tajriba guruhi</b>	<b>Nazorat guruhi</b>
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	140	70	70
Guliston davlat universiteti	117	60	57
Fargona davlat universiteti	110	55	55
<b>Jami</b>	<b>367</b>	<b>185</b>	<b>182</b>

Biz tomonimizdan pedagogik tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda ya'ni; tayyorgarlik, amalga oshirish va yakuniy bosqichlarda tashkil etildi va o'tkazildi.

Birinchi bosqich-tayyorgarlik bosqichi (2019–2020yy.) tadqiqot muammosining holati, tadqiqotning ob'ekti, mavzusi, ilmiy-nazariy asoslari o'rganildi. Kredit-modul jarayonida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirishga oid nazariya va amaliyotlar tahlil qilindi, mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirishning modeli ishlab chiqildi, oliy ta'limdagi pedagogik shart-sharoitlar

<sup>10</sup> Muallif tomonidan hisoblangan

aniqlandi. Ular asosida tajriba-sinov dasturi tuzildi, uni o'tkazish vaqti va muddatlari belgilandi.

Ikkinchi bosqichda-amalga oshirish bosqichi (2020–2021yy.) tajriba-sinov ishining har bir bosqichi uchun o'rganish asosi va maqsad, vazifalari aniqlashtirib olindi. Tajriba-sinovning aniq bosqichi ko'rsatildi, bu mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlanganligining boshlang'ich darajasini aniqlash imkonini berdi. Kredit-modul jarayonida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish modelining muammoning dolzarbligi va ishlab chiqilgan tamoyillarning tatbiqini metodik asoslash uchun pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi hamda tajriba-sinovning nazorat bosqichi o'tkazildi.

Uchinchi bosqich-yakuniy bosqich hisoblanib (2021-2022 yy.) pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida olingan natijalarni tahlil qilish va qayta ishlash amalga oshirildi, dissertasiya tadqiqoti natijalari umumlashtirildi va rasmiylashtirildi.

Tadqiqot ishining natijalari uning samaradorlik darajasi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, biz mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish samaradorligini qay darajada oshirilganligini ham aniqlashga erishdik. Buning uchun biz ta'kidlovchi eksperimentni o'tkazishimiz davomida talabalarning dastlabki mustaqil ta'lim jarayonida ingliz tilini o'rganishida namoyon bo'layotgan qobiliyatlarini aniqlagan bo'lsak, shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari jarayonida mustaqil ta'limga oid bilim, ko'nikmalar, ingliz tilini bilish qobiliyatlari qay darajada chuqur va mustahkam ekanligi, mustaqil ta'lim orqali ularning ko'nikma va malakalarining takomillashib borgani, mustaqil ta'limni sifatli tashkil etishga munosabatlarining rivojlanganligi, tilni o'rganishga doir axborotlarni mustaqil qidirib topish ko'nikmasi shakllanganligi, muammoli va amaliy vaziyatlarni tahlil qilish, o'quv topshiriqlarini noan'anaviy yechish yo'llarini topish, g'oyalarni ishlash va xulosalarni qabul qilish, qarorlarni qabul qilish, vaziyatni

to'g'ri baholay olish, refleksiya, bir-birlarini tushuna olish ko'nikmasi aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqotimizda tayyorgarlik tajribasi hamda tajribaviy ta'limlar e'tiborga olingan bo'lib, tayyorgarlik tajribasi bir qator muammolarni hal qilishga qaratilgan: tajriba-sinov ishlari olib borilgan ta'lim muassasalarida xorijiy tilni o'rganishda, o'qitishning mazmun-mohiyati, texnologiyasi, tashkiliy holati va vositalarini tahlil qilish; talabalar motivasiyasini va ehtiyojlari darajasini aniqlash maqsadida so'rov o'tkazish; ishlab chiqilgan texnologiya hamda mashqlar tizimi va qo'shimcha o'quv dasturi samaradorligini sinab ko'rish hamda sinov mashg'ulotlarini o'tkazish; tajribaviy ta'limning ishchi gipotezasining asosiy qoidalarini aniqlash.

Tajribaviy ta'lim esa, diagnostika bosqichi (xorijiy tilni o'zlashtirish qobiliyatining darajasini aniqlash); shakllantirish bosqichida xorijiy tilni o'zlashtirish qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish dasturiga muvofiq, kredit-modulli ta'lim tizimi nutq qobiliyatlarini rivojlantirish; nazorat bosqichi xorijiy tilni o'zlashtirish qobiliyatining takomillashtirish darajasi, tajriba natijalarini baholash.

Biz tajriba-sinov ishlari o'tkazilgan Iqtisodiyot fakulteti talabalari o'rtasida xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalarini samarali shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator omillarni aniqladik: mashqlar va vazifalarning darajadagi gradasiyasining yetishmasligi; talabalar intizomida o'quv jarayonini tashkil etish to'g'risida tushunchalarning yo'qligi; talabalar uchun intizom va nutq yo'nalishi bo'yicha zamonaviy haqiqiy materiallarning yetishmasligi; talabalarning ilmiy yutuqlarini oylik reyting baholashning yetishmasligi; talabalar mustaqil ishi uchun vazifalar blokining yo'qligi; kredit-modulli tizim va uning ishlash tamoyillari to'g'risida talabalar o'rtasida bilim yetishmasligi; nutq malakalarini shakllantirishda guruhlarining geterogenligi.

Tayyorgarlik tajribasining birinchi vazifasi – oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tilni o'qitish shart-sharoitlarini o'rganish, o'qitishning mazmuni, usullari,

tashkiliy shakllari va vositalarini aniqlashdan iborat edi. Buning uchun kafedra o'qituvchilari bilan suhbatlar, shuningdek, kafedra uslubiy birlashmasining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Ikkinchi vazifani hal qilish uchun (motivasiya ehtiyojlari va darajasini aniqlash) biz o'quv guruhlari talabalari o'rtasida so'rov o'tkazdik. Tadqiqot, shuningdek, kredit-modulli tizimning ishlashi to'g'risida bilimlarni aniqladi.

Bu yerda savollarga ba'zi misollarni keltiramiz:

1. Siz qanday darajani tanladingiz?
2. Magistr darajasida o'qishni davom ettirishni xohlarmidingiz?
3. Tanlagan kasbingiz sizga ma'qulmi?
4. Kredit-modul tizimidan qoniqasizmi?
5. ECTS nima?

Talabalarining javoblarini tahlil qilganda, 60%i magistr darajasida o'qishni davom ettirishni xohlashini, 65% tanlagan kasbi o'ziga ma'qulligi, 40% kredit-modul tizimidan qoniqishi, 90% kerakli ballar haqida ma'lumot berishi, 30% ECTS nimaligini anglatishini, 25% qaysi mamlakatlarda kredit-modulli tizim mavjudligidir.

Uchinchi vazifani hal etishga kirishishdan oldin biz talabalar o'rtasida xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish darajasiga o'z-o'zini baholashni aniqlash uchun kichik so'rov o'tkazdik. Talabalardan taklif qilinganlardan javob variantini tanlab, bir qator savollarga javob berish talab qilindi (3.1.2-jadval):

Natijalar foizlarda quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi: 1-jarayonga 36,6% grammatikadan, 23,3% leksikadan qiynalayotganini aytdi. 2-jarayonga 63% ingliz tilida ravon gapira olishini aytgan. 3-jarayonga monolog va dialogik nutq har biri 26% ball oldi. 40% to'g'ri so'zni unutgan bo'lsa, sinonimini topish ularga osonroq, deb javob bergan.

Talabalar kontingenti haqida gapiradigan bo'lsak, 40% boshlang'ich maktabda, 20% o'rta maktabda (5-sinfдан) xorijiy tilni o'rganishni boshlagan. 53,3% mavhum mavzularda xorijiy tilda muloqot qilish oson deb javob berishdi.



40% uyushmalar va misollar usulini yangi soʻz boyligini oʻrganishda eng samarali deb atadi. Talabalarning 46%i «social interaction in conversation» atamasining maʼnosini bilmadi.

### 3.1.2-jadval<sup>11</sup>

**Talabalarga taklif qilingan savollar**

Xorijiy tilda gapirayotganda siz koʻpincha qiyinchiliklarga duch kelasiz, bu..... Agar koʻchada xorijiy tilda murojaat boʻlsa, siz .....	Leksika Grammatika Fonetika Adashasiz Xorijiy tilda xotirjam javob berasiz Oʻzbek tilida xotirjam javob berasiz
Oliy taʼlimda xorijiy til darslarida siz uchun eng oson edi .....	Monolog nutq Dialogik nutq Hech narsa emas
Agar siz xorijiy tildagi aloqa jarayonida kerakli soʻzni eslay olmasangiz, unda siz ...	Soʻzning sinonimini topasiz Soʻzni tushuntirishga harakat qilasiz Gaplashishni toʻxtatasiz
Siz xorijiy tilni .... oʻrganyapmiz	2 sinfdan 5 sinfdan Boshqa (yilini koʻrsating)
Berilgan mavzular boʻyicha xorijiy tilda bemalol muloqot qila olasizmi?	Ha Yoʻq Mavzularga bogʻliq
Yangi soʻz bilan ishlashda siz ...	Soʻzlarni yod olasiz Uyushmalar va misollar usulidan foydalanasiz Soʻzlarni aniqlashga harakat qilasiz
Social interaction in conversation nima ekanligini bilasizmi?	Ha Yoʻq Bu atamani birinchi marta koʻrishim
Xorijiy tilni bilish darajangizni shaxsan qanday baholaysiz (10 dan 1 gacha, bu yerda 10 maksimal ijobiy ball)	Raqamni yozing

Xorijiy til darajasini baholashda 1 dan 10 gacha shkalada javob 60% – 8, 10% – 7 ni koʻrsatdi.

Keyingi muammoni hal qilish, yetakchi xorijiy metodistlarning manbalari asosida mashqlar tizimini ishlab chiqdik. Toʻplangan mashqlar tizimi xorijiy tilda qoʻshimcha oʻquv yordamining asosini tashkil etdi. Ushbu tadqiqotning 2.2-bandida batafsilroq keltirilgan.

Xorijiy til boʻyicha asosiy darslikning tahlili shuni koʻrsatdiki, mavzularning aniq tashkil etilishi va turli xil mashqlarning mavjudligiga qaramay, darslikning oʻzi talabalarga fanning keyingi oʻrganish uchun motivasiyani

<sup>11</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan

shakllantirishga imkon bermaydi. Bu birinchi navbatda eskirgan matnlar va tematik lugʻat bilan bogʻliq.

Talabalar soʻrovini oʻtkazgandan soʻng, koʻpchilik darslikda taklif qilingan matnlarni qiziqarli va oson deb hisoblashini bilib oldik.

Oʻquv tajribasi 2019-2022 oʻquv yillarida oliy taʼlim muassasalari negizida Iqtisodiyot fakultetida oʻtkazildi. Tadqiqotning ushbu bosqichida 367 nafar talabalar hamda ingliz tili kafedrasida oʻqituvchilari ishtirok etishdi.

Oʻquv tajribasi dasturga muvofiq bir necha bosqichlardan iborat edi: adaptiv-axborot, shu jumladan, xorijiy tilni oʻzlashtirish koʻnikmalarini rivojlantirishning dastlabki darajasini aniqlash uchun test sinovi; tayyorgarlik; tajribaviy oʻrganish (oʻz-oʻzini oʻrganish) jarayonida xorijiy tilni oʻzlashtirish qobiliyatining rivojlanish dinamikasini aniqlash uchun shakllantiruvchi boshlangʻich, shu jumladan, oraliq boʻlimlar va testlar; nazorat (nazorat va yakuniy boʻlimlar birinchi semestr natijalari asosida oʻquv farazini tasdiqlash uchun); tajribaviy taʼlim jarayonida xorijiy tilni oʻzlashtirish koʻnikmalarini yanada rivojlantirish dinamikasini aniqlash uchun oraliq boʻlimlar va testlarni oʻz ichiga olgan shakllantiruvchi ilgʻor taʼlim; yakuniy nazorat (birinchi oʻquv yili natijalari asosida tadqiqot gipotezasini tasdiqlash uchun nazorat va yakuniy boʻlimlar).

Tajribali taʼlimning oʻzgaradigan shartlari: qoʻshimcha oʻquv va didaktik materialning mazmuni; mashq va vazifalarning tabiati, mazmuni va soni; taʼlim jarayonini tashkil etish.

Oʻzgarmaydigan shartlar: oʻzlashtiriladigan oʻquv materialining bir xil miqdori; materialning oʻzlashtirilishini nazorat qilishning bir xil turlari; tajriba mashgʻulotlarning bir xil vaqti (sinf soatlari soni); bir xil asosiy qoʻllanma; talabalar guruhlarining bir xil miqdoriy va sifat tarkibi.

Biz tajriba-sinov ishlarining har bir bosqichini quyidagi tarzda tashkil qildik: Semestr boshida 1-kurs talabalarining xorijiy tildagi kommunikativ

kompetensiyasini shakllantirish darajasini birlamchi aniqlash uchun ikki qismdan iborat kirish testini o‘tkazdik: yozma va og‘zaki.

Yozma qism taklif qilingan mavzu bo‘yicha fikrlash elementlari bilan inshoni o‘z ichiga oladi (bu holda, “Nega men chet tili o‘qituvchisi bo‘lishga qaror qildim”).

1-kurs talabalarining insholariga misollar keltiramiz (imlo va grammatika saqlangan).

*I decided to choose this profession because I like to communicate with people and I want to share my life experience with them. I cannot imagine my life without foreign languages. I believe that foreign languages are my future. I will do my best to achieve good results in my studies.*

*At first I heard about this institute. I like this institute because the teachers and students are very friendly, there are many interesting activities in this university. I think being a teacher is a very interesting but challenging profession. After graduating from this institute, I want to study English in an educational institution. But I think I did the right thing when I chose him.*

Gapirish qismi monolog va dialog bilan suhbatdan (berilgan mavzu bo‘yicha) iborat edi. Baholash mezonlarga muvofiq va so‘zni mos yozuvlar bilan taqqoslash orqali amalga oshirildi.

Ma’lumotnoma bayonnomasining nutq shakliga mosligi va tilning to‘g‘riligi kafedra o‘qituvchilari tomonidan baholandi. Ma’lumotnoma – bu nutq faoliyatining bir turi sifatida nutqni shakllantirishning asosiy ko‘rsatkichlari bilan tavsiflangan bayonot. Bular tilning asosiy xususiyatlari (leksik, grammatik va fonetik to‘g‘riligi), fikrni xorijiy til vositasida rasmiylashtirish va har qanday kommunikativ vazifalarni hal qilish qobiliyatidir.

Monolog tayyorlash uchun misollar:

Our progress as a nation cannot be faster than our progress in education.

2. Primary education is free in Uzbekistan.

3. The best education in the world is experience.

4. The secret of education is adaptation to education.

5. The best way to make students better is to motivate them.

O'qituvchi bilan suhbat uchun mavzulardan misollar:

1. Do you think our life has changed compared to school days, what has changed, is it easy to be a university student?

2. Should the food in the canteen be cheaper than it is now, what would you like to change in the university canteen, what should be on the menu?

3. Shopping in Turkey (how do you feel about online shopping)

Talabalarining bayyonotlariga misollar (mavzu buyicha bayonot):

Only primary education is free. In my opinion, the secret of free education is that everyone has the right to education. Education gives us many opportunities.

Ushbu so'zlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, leksik nutq qobiliyatining tezkor tayyorgarligi yo'qligi sababli, so'zlarning nutq xususiyatlari pasayadi. Tematik lug'at bilan bayonotlarning past to'yinganligi mavjud. So'zlashishda talabalar bir fakt haqida gapira boshlaydilar, so'ngra birinchisiga baho bermasdan, boshqa mavzuga o'tadilar. O'rganilgan nutq namunalari kam ifodalanganligi, xatolarni o'z-o'zini tuzatish holatlari deyarli yo'q.

### 3.1.3-jadval<sup>12</sup>

№	POTM	Guruhlar	Talabalar soni	talabalarining olgan baholari		
				C daraja	B daraja	A daraja
1.	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	Tajriba	70	5	15	50
		Nazorat	70	6	14	50
2.	Guliston davlat universiteti	Tajriba	60	5	15	40
		Nazorat	57	5	14	38
3.	Farg'ona davlat universiteti	Tajriba	55	5	16	34
		Nazorat	55	6	14	35
4.	Jami	Tajriba	185	15	46	124
		Nazorat	182	17	42	123


<sup>12</sup> Muallif tomonidan hisoblangan

Soʻzlarning sifatlar, mavzu-infinitiv burilishlar bilan murakkablashishi kamdan-kam kuzatiladigan hodisadir. Ijtimoiy oʻzaro taʼsir iboralarining yoʻqligi alohida eʼtiborga loyiqdir.

1. diagnostika bosqichi (xorijiy tilni oʻzlashtirish qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash) boʻyicha dastlabki natijalar.

Xorijiy tilni oʻzlashtirish qobiliyatining rivojlanish darajasini baholash mezonlariga muvofiq jami talabalarining javoblarini tahlil qilish va baholash shuni koʻrsatdiki, talabalarining 67-67,7% A darajasiga, 23,1-24,9% B darajasiga va 8,1-9,3% C darajasiga toʻgʻri keladi. 3.1-rasmda ushbu foiz nisbati koʻrsatilgan.

**3.1.1rasm<sup>13</sup>**



### **3.1.1-rasm. Xorijiy tilni oʻzlashtirish koʻnikmalari**

Umuman olganda, adaptiv-axborot bosqichida xorijiy tilni oʻzlashtirish koʻnikmalarini rivojlantirishning umumiy darajasi tayyor boʻlmagan nutq sohasida koʻnikma va shakllanmagan koʻnikmalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan tavsiflanadi; tematik soʻz boyligini yetarli darajada bilmaganligi sababli suhbatni davom ettira olmaslik; lingvistik va psixologik toʻsiqlarning mavjudligi, gapirishdan va notoʻgʻri tushinishdan qoʻrqish; javobga tayyorgarlik koʻrishda mustaqil ishlashni istamaslik. Shuningdek, quyidagi alohida qiyinchiliklar kuzatildi: a) oʻzaro soʻzlarning kombinasiyasi; b) jumlalarning grammatik jihatdan toʻgʻri dizayni.

<sup>13</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan

Nutqdagi eng keng tarqalgan xatolarni tuzatganimizdan soʻng, biz talabalar orasida ularning paydo boʻlish sabablarini tushuntirishga harakat qildik. Buning sabablarini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin, deb hisoblaymiz: hozirgi paytda oʻrta maktablarda xorijiy tilni tizimli oʻqitish mavjud emas, imtihon topshirish uchun repetitor-murabbiylikka eʼtibor qaratiladi; bir necha yil davomida xorijiy til imtihonlari tarkibidan nutq boʻlimi chiqarib tashlandi, oʻrta maktab talabalari (boʻlajak talabalar) oʻrtasida ushbu mahoratni yanada rivojlantirish toʻxtatildi; nutq faoliyati turlarining bir-biri bilan oʻzaro munosabatining taʼlimiy imkoniyatlaridan toʻliq foydalanilmagan.

Ikkinchi tayyorgarlik bosqichida talabalar axborot taʼminotini yanada samarali integrasiya qilish uchun leksik va grammatik bazani shakllantirish, dastlabki ishlar olib borildi. Talabalarga lugʻat bilan ishlash tamoyillarini singdirish kerakligi sababli leksik birliklar tushuntirildi, talabalar ogʻzaki muloqotning tipik sohalari bilan tanishdilar, har bir soha uchun leksik minimum taqdim etildi. Shuningdek, mikro-loyihalar jarayonida mustaqil ishlashning taʼlimiy koʻnikmalarini shakllantirish boʻyicha ham ishlar olib borildi. Mikro-loyihalarni amalga oshirish jarayonida talabalar jamoada ishlashni, jamoat oldida nutq soʻzlashni mashq qilishni oʻrganish, shuningdek, loyihadagi ishlarning bir qismi uchun javobgarlikni his qilish imkoniyatiga ega boʻldilar.

Eksperimentning uchinchi bosqichi (boshlangʻichni shakllantirish) tabiiy taʼlim sharoitida amalga oshirildi.

Talabalardan ikki guruh tuzildi: tajriba va nazorat.

Uchinchi bosqichning vazifalaridan biri (shakllantiruvchi boshlangʻich) oʻrganilayotgan mavzular va kommunikativ vaziyatlar misolida xorijiy tilni oʻzlashtirish koʻnikmalarini shakllantirishdir.

“Kundalik ish tartibi” mavzuiy-tematik moduli misolida xorijiy tilni oʻzlashtirish koʻnikmalarini shakllantirish jarayonini koʻrib chiqamiz.

Tematik boʻlim oʻqituvchining kirish qismidan boshlanadi, bu talabalarga

ushbu mavzu doirasida muayyan muammolarni muhokama qilish uchun ma'lum darajada psixologik jihatdan moslashishga imkon beradi. Bundan tashqari, o'qituvchining kirish so'zi javobga, muloqot, dialogga turtki beradi: What does the phrase "daily work" mean? Nothing interesting comes to mind, except for the daily routine, but still, this concept is very important. Now our study required a lot of time and effort. To do this, it is necessary to take a break from time to time during the day, and if you know how to manage your daily routine, you are lucky. I invite you to reflect on the topic based on motivation because you need to think about your life and its effectiveness.

Keyin o'qituvchi talabalarni kundalik tartib tushunchasi bilan bog'laydigan 3-4 ta kalit so'zni taklif qiladi. Bu vazifa 30-40 soniya davom etadi. Talabalar o'z variantlarini o'qiydilar va tanlovlarini qisqacha tushuntiradilar. Doskada o'qituvchi eng ko'p takrorlanadigan kalit so'zlarni yozadi. Kichkina ro'yxatni (4-5 pozisiya) tuzib, o'qituvchi talabalarga mavzuni o'rganish jarayonida bu so'zlar ro'yxati o'zgarishini tushuntiradi, chunki talabalarning kundalik tartib haqidagi fikri o'zgaradi.

Yangi lug'at bilan ishlash to'g'ridan-to'g'ri sinfda boshlanadi. Talabalarga leksik birliklar ro'yxatini tezda ko'rish va tanish bo'lmaganlarni ta'kidlash taklif etiladi. O'qituvchi bu notanish so'zlarni talabalarga bayon qiladi va ularga tarjimaga murojaat qilmasdan qolgan so'zlarni mustaqil taqdim etish imkoniyatini beradi. Talabalar turli xil variantlarni taklif qilishadi.

Talabalar uchun navbatdagi vazifa – mavzu tayanch so'zini tanlab, unga ta'rif berish. Muloqot shaklida fikr almashish mumkin. Ushbu bosqichda o'qituvchi barcha talabalarning munozarada qatnashishini diqqat bilan kuzatishi kerak, chunki qarama-qarshi vaziyatda dialog alohida talabalarning monologlariga aylanishi mumkin. Mavzuning tayanch so'zini muhokama qilish vaziyatida o'qituvchining mavqei va roli ustun bo'lmashligi kerak. Munozara erkin shaklda bo'lib o'tadi, har bir talaba boshqa nuqtai nazarni gapirish, qabul qilish yoki rad etish imkoniyatiga ega.

O'qituvchi munozarani kuzatib boradi, xatolar va qoidabuzarliklarni tuzatadi, agar kerak bo'lsa, tarjimadan foydalanmasdan so'zni taklif qilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, talabalarning bayonotlaridagi noaniqliklar va xatolar darhol tuzatilmasligi kerak, chunki aks holda gapirish motivasiyasi yo'qolishi mumkin.

Keyingi bosqich davomida talabalar ma'lum bir mavzu bo'yicha leksik ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan til mashqlarini bajarishga kirishadilar. Mashqlar oddiydan murakkabga, almashtirish mashqlaridan kichik monologik bayonlarni tayyorlashgacha bo'lgan tamoyilga muvofiq tartibga solinadi. Talabalarga turli xil vazifalar taklif etiladi: use adverbs to make the following sentences, match the adverbs to the verbs, complete the words with adverbs, determine the active word/phrase that matches the definition, grammatically incorrect correct the correct words, explain the meaning of the phrases.

Ish paytida talabalar lug'atlar va tezauruslar ularga yordamga keladi.

Vazifalar og'zaki ravishda amalga oshiriladi, vazifada maxsus ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno. Bu bosqichda talabalarga mavzuga oid yangi so'zlarni "ko'zdan kechirish" yo'lga qo'yiladi. Ammo kelajakda bunday harakatlar o'qituvchi tomonidan to'xtatilishi kerak. Shunday qilib, nafaqat majburiy, balki maxsus yodlash ham sodir bo'ladi.

Keyingi bosqich mavzu bo'yicha bosma va audio matnlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda umumiy tamoyili biz oldingi xatboshida tasvirlaganmiz. Keling, ba'zi fikrlarga batafsilroq to'xtalamiz.

Mavzu bo'yicha matn bilan ishlashning matndan oldingi bosqichida biz talabalar uchun ehtimoliy prognozlash mexanizmini ishlab chiqamiz. Bunga matnning sarlavhasidan muhokama qilinadigan narsalarni taxmin qilish yoki matnning birinchi va oxirgi jumllarini o'qish va asosiy matndagi ma'lumotlarni taxmin qilish kabi vazifalar yordam beradi.

Bosqichlar muhokamasida talabalarning taxminiy fikrlari tekshiriladi.



Keyinchalik, talabalar yangi leksik birliklar yordamida matn orqali semantik zanjir qurishga taklif qilinadi.

Matn bosqichi matnni ovoz chiqarib o‘qishdan boshlanadi. O‘qish jarayonida o‘qituvchi talabalarning idrok etish va so‘zlarni tushunish jarayonini boshqarishi kerak, ya’ni taxmin qilish va prognozlash mexanizmini yaratish zarur. Bu yerda siz talaba yangi so‘z uchun inglizcha sinonimni tanlaganida, izohlash texnikasini ham qo‘llashingiz mumkin.

O‘qib bo‘lingach, so‘z birikmalari ustida ishlash, ya’ni yangi so‘zlarning ma’nolarini aniqlashtirish, xorijiy tildagi ma’nolarini tushuntirish, sinonim va o‘zbekcha ekvivalentlarini tanlash taklif etiladi.

Bu bosqichda yangi leksik birlikarni (chap ustun) ularning ta’riflari (o‘ng ustun) bilan solishtirish mashqini bajarish o‘rinli ko‘rinadi [82].

Yangi so‘zlarni kuchli yodlash kontekstual ravishda sodir bo‘ladi.

Shuning uchun yangi so‘zlarni o‘z ichiga olgan jummalarni izohlash va ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish, yangi so‘zlar bilan jumlar tuzish, matn haqidagi savollarga javob berish kabi vazifalar orqali yangi so‘z boyligini tuzatish mumkin.

Matn bosqichi vazifani davom ettiradi – suhbat talabalar taklif qilingan savollarga matn mazmuniga bog‘langan holda javob berishdan iborat. Ushbu mashqning maqsadi matn muammosi bo‘yicha keyingi munozaraga, suhbatga tayyorgarlik ko‘rishdir. Berilgan savollarga javoblar o‘qilgan ma’lumotlarning o‘z tahlili va talqinini nazarda tutadi.

Ushbu bosqich monologik so‘zni qanday qurishni o‘rganishga o‘tish davri sanaladi. Mazkur vazifalar bloki semantik chiziqlarni, asosiy fikrlarni, matndagi eng muhim jummalarni, muallifning muammoga munosabatini, shuningdek, tavsiyalar va xulosalarni aniqlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O‘qituvchi talabalarga matnni qisqartirishni, keraksiz tafsilotlarni qoldirishni yoki ba’zi dalillarni isbotlovchi qismlarni topishni, matn muammosi bo‘yicha savollar tuzishni, ularni hamkasblari bilan muhokama qilishni va hokazolarni taklif qiladi.

Keyingi asosiy matndan keyingi bosqich– matnda va guruhda muhokama qilingan masalalar bo‘yicha yakuniy suhbat yoki munozara.

Shuni ta’kidlash kerakki, audio matn bilan ham xuddi shunday ish olib borilmoqda. Agar avvalgi barcha vazifalar umuman mavzu bo‘yicha yangi so‘z birikmalarini kiritish va mustahkamlashga, tayyorlangan dialogik va monologik nutq mahoratini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa (kichik hajmda), unda bu bosqich yangi lug‘at yordamida mustaqil, juda katta monologik so‘zlarni mulohaza qilishni o‘z ichiga oladi. Bunday holda talabalarga quyidagi vazifalar taklif etiladi: make up a dialog on the subject, discuss the issue with the partner, make up situations to illustrate sayings, enlarge on the problem.

Xorijiy tilni o‘rganishning ilk bosqichida og‘zaki xorijiy tilni o‘rganishni rivojlantirish bo‘yicha ishning muhim va juda samarali shakli talabalar tomonidan tematik taqdimotlarni tayyorlashdir. Ularning mohiyati shundan iboratki, har bir talaba taqdim etilgan mavzu doirasida o‘zini qiziqtirgan muammo bo‘yicha haqiqiy materiallar asosida mustaqil ravishda kichik tadqiqot o‘tkazishi va nutq tayyorlashi kerak.

Shubhasiz, ushbu ish shaklining ahamiyati shundaki, har bir talaba o‘z nutqi bo‘yicha keng fikrlarni tinglash imkoniyatiga ega va uning taqdimot qobiliyatini, nutq qobiliyatini baholash faqat o‘qituvchining fikri bilan cheklanmaydi. Bundan tashqari, guruhning boshqa a‘zolari tomonidan taqdimotlarni tahlil qilish va baholash ularning barcha afzalliklari va kamchiliklarini maqsadli ravishda kuzatish imkonini beradi, shu bilan uni shaxsiy tajribaga o‘tkazadi va o‘z-o‘zini aks ettirish va introspeksiya qobiliyatini rivojlantiradi. Taqdimot o‘rganilayotgan tilda barcha talabalar ishtirokida bo‘lib o‘tadi.

Talabalarning barcha bayonotlari ishlab chiqilgan mezonlarga muvofiq baholandi: Tajriba mashg‘uloti boshlanishidan oldin tajriba guruhlari talabalari og‘zaki nutqni baholash mezonlari bilan tanishtirildi. Talabalar uchun tushunarli bo‘lgan o‘n balli baholar bilan darajalar (A,B,C) tavsifining muvofiqligi to‘g‘risida

tushuntirish berildi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu parametrlar talabalarga og'zaki xorijiy tildagi nutqni bilish darajasi va nutq mahsuloti sifatini baholash o'rtasidagi bog'liqlikni aniqroq tushunish uchun taqdim etildi. Bunday holda, mezon talabalar uchun o'zlarining xorijiy tildagi nutqini tanqidiy tahlil qilishning bir usuli hisoblanadi.

Tajriba mashg'ulotlar jarayonida an'anaviy tizim bo'yicha o'qitilgan talabalar va biz taklif qilgan tizim bo'yicha o'qiganlarning og'zaki nutqi va nutq xatti-harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida nazorat va tajriba guruhlarida oraliq va nazorat bo'limlarini o'tkazdik.

2. Shakllantirish bosqichi (xorijiy tilni o'zlashtirish qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish dasturiga muvofiq kredit-modulli ta'lim tizimida nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan) tajriba sinov ishlari bo'yicha oraliq bosqich natijalari


T/r	OTM	Guruhlar	Talabalar soni	Tajriba va nazorat guruhlari talabalarining olgan baholari		
				C daraja	B daraja	A daraja
				5	4	3
1.	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	Tajriba	70	9	35	26
		Nazorat	70	6	13	51
2.	Guliston davlat universiteti	Tajriba	60	8	33	19
		Nazorat	57	5	13	39
3.	Farg'ona davlat universiteti	Tajriba	55	9	29	17
		Nazorat	55	5	14	36
	<b>Jami</b>	<b>Tajriba</b>	<b>185</b>	<b>26</b>	<b>97</b>	62
		<b>Nazorat</b>	<b>182</b>	<b>16</b>	<b>40</b>	126

Deyarli barcha talabalarining og'zaki nutqini rivojlantirishning ijobiy dinamikasi aniq ko'rinib turibdi, garchi tajriba guruhlar talabalarining xorijiy tildagi so'zlarini tahlil qilish og'zaki nutq rivojlanishining biroz kattaroq ijobiy dinamikasini ko'rsatadi: so'zlar hajmining oshishi (jumlar soni), nutqning aniqroq tuzilishi, suhbatda katta tashabbus va faollik; kamroq leksik va grammatik

xatolar, ikkilanishlar, pauzalar; kommunikativ-funksional repertuarining kengayishi, hissiy va baholovchi hukmlar sonining ko‘payishi.

Ayniqsa, taraqqiyot birinchi semestrning o‘rtalaridan (dastlabki shakllantirish bosqichi) sezilarli bo‘lib, ikkinchisining boshida va o‘rtalarida dinamik ko‘tarilish (rivojlangan shakllantirish bosqichi) kuzatildi. Shuni ta’kidlash kerakki, nazorat guruhleri o‘qituvchilari talabalari bilan suhbatlar paytida kuchli talabalar semestr oxiriga qadar og‘zaki nutqni rivojlantirishning yuqori dinamikasi ko‘rsatmaganliklari aniqlandi, ammo respondentlarning 76% so‘z boyligini kengaytirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish va boshqa ijobiy o‘zgarishlarni ta’kidladilar.

3.1.2-rasm.<sup>14</sup>



**3.2-rasm. Shakllantirish bosqichi (xorijiy tilni o‘zlashtirish qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish dasturiga muvofiq kredit-modulli ta’lim tizimida nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan) tajriba sinov ishlar natijalari (foiz hisobida)**

Ikki semestr davomida tajriba guruhlarining mutlaqo barcha talabalarining og‘zaki nutqini rivojlantirishning barcha sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarida tubdan ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermasligini aytmaymiz, bu turli xil ob’yektiv va sub’yektiv omillar bilan izohlanadi. Shunga qaramay, ishning asosiy natijalari va yutuqlaridan biri – bu xorijiy tilda gaplashishdagi psixologik to‘siqlarni olib

<sup>14</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan

tashlash, tinglovchilar bilan suhbatlashish, ogʻzaki xorijiy tildagi nutqni rivojlantirish boʻyicha mustaqil ishlarga qiziqish va intilishni oshirish, oʻz muvaffaqiyatlariga ishonchdir.

Mashgʻulotning toʻrtinchi bosqichi (nazorat) oʻrganilgan mavzular boʻyicha semestr testlarini yozadigan, oʻrganilgan mavzular boʻyicha oʻqituvchi bilan suhbatdan oʻtadigan talabalarni oʻz ichiga oladi.

Beshinchi bosqich (shakllantiruvchi rivojlangan) asosan mashgʻulotning uchinchi bosqichini, oltinchi bosqich esa toʻrtinчисini takrorlaydi.

### 3.1.5jadval


#### Mashgʻulotning natijalariga asoslangan soʻrovnoma<sup>15</sup>

Shaxsan siz xorijiy tilni bilishingizni qanday baholaysiz? (10 dan 1 gacha, bu yerda 10 maksimal ijobiy ball)	Raqamni yozing
Xorijiy tilni oʻrganishda qoʻshimcha qoʻllanmalardan foydalandingizmi?	Ha Yoʻq Bilmayman
Qoʻshimcha qoʻllanmada qaysi boʻlimni eng oson/eng qiyin deb topdingiz?	Boʻlimlar nomlarini yozing
Dialoglar uchun tavsiya etilgan mavzular siz uchun qiziqmi?	Ha Yoʻq Bilmayman
Tavsiya etilgan vazifalar siz uchun qiziqmi?	Ha Yoʻq Bilmayman
Ushbu oʻquv yili uchun ingliz tili darajangiz...	Yaxshilangan Yomonlashdi Hech narsa oʻzgarmadi
Shu bilimingiz bilan chet tili imtihonidan oʻt olasizmi?	Ha Yoʻq Bilmayman
Xorijiy tilda gapirish mahoratingizni hozir qanday taʼriflagan boʻlardingiz? (10 dan 1 gacha, bu yerda 10 maksimal ijobiy ball)	Raqamni yozing

<sup>15</sup> Muallif ishlanmasi

Tajribali ta'limning muhim qismi talabalarni xorijiy tilni o'rganishda o'z yutuqlarini aks ettirish, baholash va o'z-o'zini tahlil qilish uchun so'roq qilishdir. Tajriba mashg'uloti yakunida talabalarga qo'shimcha qo'llanma bo'yicha mashg'ulot natijalariga asoslangan yana bir so'rovnoma taklif etildi (3.1.5-jadval).

Javoblar quyidagicha taqsimlandi: Xorijiy til darajasining shaxsiy bahosi (1 dan 10 ballgacha) haqidagi 1-savolga javob berib, 40% 8 ball, 10% 7 ball, 30% 9 ball ko'rsatilgan. 63,3% talabalar muntazam ravishda qo'shimcha nafaqa asosida ishlaganliklarini ko'rsatdilar. 50% dialoglarning mavzulariga qiziqishlarini aytishdi. 70% qo'llanmadagi vazifalarning o'zi ular uchun qiziqarli ekanligini aytdi. 76% ular xorijiy til darajasi yaxshilandi. Tajriba mashg'ulotlaridan so'ng 46,6 % ijobiy javob berdi. 60% talabalar xorijiy tilda gapirish qobiliyatlarini 9 ball (10 ballik shkala bo'yicha), 20 % 8 ball bilan tavsifladilar.



**3.1.3-rasm. nazorat bosqichi (xorijiy tilni o'zlashtirish qobiliyatining rivojlanish darajasini tajribadan keyingi aniqlash, tajriba mashg'ulotlar natijalarini baholash) bo'yicha natijalarning darajalari (foiz hisobida)<sup>16</sup>**

Oltinchi bosqichdagi o'quv natijalarini tahlil qilishga ko'ra, birinchi bosqich bilan taqqoslaganda, nutq qobiliyatini shakllantirish darajasini baholash mezonlariga ko'ra, foiz nisbati quyidagicha: talabalarning tajriba va nazorat guruhlarida mos

<sup>16</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan

ravishda 22,2% va 64,3% A darajasiga, talabalarning 58,9% va 25,3% B darajasiga to‘g‘ri keladi, 18,9% va 10,4% C darajasiga mos keladi.

3.1.6-jadvalda tajriba guruhidagi oltinchi bosqich oxirida o‘quv natijalarining nisbati, shuningdek, tajriba va nazorat guruhlari natijalarining nisbati ko‘rsatilgan. Ya‘ni nazorat bosqichi (xorijiy tilni o‘zlashtirish qobiliyatining rivojlanish darajasini tajribadan keyingi aniqlash, tajriba mashg‘ulotlar natijalarini baholash) natijalari keltirilgan.

### 3.1.6-jadval

#### Nazorat va tajriba guruhlarida gapirishni o‘rganish natijalarining nisbati<sup>17</sup>

T/r	OTM	Guruhlar	Talabalar soni	Tajriba va nazorat guruhlari talabalarining olgan baholari		
				C daraja	B daraja	A daraja
				5	4	3
1.	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	Tajriba	70	12	40	18
		Nazorat	70	7	15	48
2.	Guliston davlat universiteti	Tajriba	60	11	36	13
		Nazorat	57	6	15	36
3.	Farg‘ona davlat universiteti	Tajriba	55	12	33	10
		Nazorat	55	6	16	33
	<b>Jami</b>	Tajriba	185	35	109	41
		Nazorat	182	19	46	117

